

# Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqqan boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 21-yanvar chorshanba №3(9588)



2-3-betlar

O'qituvchi  
nimani  
o'ylaydi?

8-sinfidagi o'quvchi qizimning mazasi bo'lmay qoldi. O'zi tartibli, o'qishga qiziqadigan va doimo dars jadvalidagi barcha darsliklarni olib keladi. Uydagilari kelishdi, kuzatib qo'yish uchun sumkasini ko'tardim. O'quvchilarimning sumkalarini hech ko'tarib ko'rmagan ekanman, ichiga 10 kilolik tosh solinganday zil-zambil. Nozikkina qiz, uyi maktabdan chamasini 2 km uzoqda. "Sumkangda nima bor?" desam, "Ustoz, faqat kitoblarim va daftarlarim" dedi. Har kuni yelkasida shuncha yuk bilan kelib ketar ekan. Rahmim keldi.

Kitoblarning og'irligi o'quvchilar qaddini bukib qo'ymaydimi? Ayrim o'quvchilar nega kitoblari uyga tashlab, faqat daftar olib kelishlarini tushundim. Nega kitoblar bunchalik og'ir?

Dilfuza SUVONOVA

O'tgan yili nazorat ishlarida diktant yo'q edi. Tekshiruvga kelganlarga "bir chorakda hech bo'lmasa bitta diktant qo'yinglar", deb taklif bildirgandim. Xayriyatki, bu yil bitta diktant qo'yishibdi. Achinarlisi, o'quvchilar juda qiyinalishdi, diktant yozish ko'nikmasini allaqachon yo'qotib bo'lishibdi.

Sanobar BERDIYEVA



## Jarayon



Globallashuv jarayonlari va to'rtinchi sanoat inqilobi shiddat bilan kechayotgan bugungi davrda har qanday davlatning iqtisodiy qudrati va raqobatbardoshligi uning tabiiy boyliklari bilan emas, balki yuqori malakali "inson kapitali" sifati bilan belgilanmoqda. Jahon mehnat bozoridagi tendensiyalar shuni ko'rsatmoqdaki, an'anaviy akademik bilimlardan ko'ra, o'zgaruvchan texnologik jarayonlarga tez moslasha oladigan, aniq amaliy ko'nikmalarga va zamonaviy kompetensiyalarga ega kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning markazida inson omili, xususan, yoshlarni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash va ularni mehnat bozori talablariga to'liq javob beradigan mutaxassis sifatida tayyorlash masalasiga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Ushbu ustuvor vazifaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida to'xtalib o'tdi:

***“Endi mamlakatimizning mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida – kasb, malaka, texnologiya va ta’limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifati-da ishlashi zarur.***

***Mutaxassislarning fikricha, bolada biror-bir kasbga qiziqish 7-sinfidan boshlanib, qaysi kasbni tanlashi 9-sinfda to'liq ma'lum bo'ladi. Shu bois 9-sinf bitiruvchilarini fanlarni o'lashtirishi va kasbiy qiziqishiga qarab saralab olish tizimini joriy qilamiz. Bunda oliygohlarga kirish istagida bo'lmagan yoshlar texnikumlarga yuboriladi.***

***Yaqinda texnikumlarga zamonaviy qiyofa va yangicha muhit olib kirish bo'yicha besh yillik dasturni tasdiqladik.***

***Mening niyatim – yoshlarimiz talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha dunyoda raqobatdosh bo'lsin, kerak bo'lsa, boshqalardan bir pog'ona ustun tursin. Ushbu maqsadga erishish yo'lida kasbiy ta'limning eng muhim bo'g'ini bo'lgan texnikumlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqamiz”.***

Davlatimiz rahbari tomonidan ushbu vazifalarni bajarish uchun 2026-yildan boshlab har yili kamida 100 tadan texnikum to'liq ta'mirlanib, texnologik va talab yuqori bo'lgan kasblarga mos holda jihozlab borilishi, Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Koreya kabi davlatlarning ilg'or ta'lim dasturlari joriy qilingan texnikumlar soni 100 taga yetkazilishi hamda 2026-yilda 7 ta viloyatda, 2027-yilda esa qolgan hududlarda ilg'or kasbiy mahorat texnikumi va “Kasblar shaharchasi” faoliyati yo'lga qo'yilishi belgilandi.

Ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari hududdagi boshqa texnikumlar uchun metodik va amaliyot bazasi sifatida faoliyat yuritisa, “Kasblar shaharchasi” maktab o'quvchilarini qurilish, servis, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, “yashil” energetika kabi sohalaridagi zamonaviy kasblarga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Kasbiy ta'lim va kasbga o'qitishda boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali yagona yondashuv asosida kasbga o'qitish, ilg'or xorijiy tajribalarni samarali joriy etish va xalqaro standartlarga mos bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida 2025-yil 23-oktabr kuni qabul qilingan tarixiy hujjatlar – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni hamda “Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori soha rivojida yangi davrni boshlab berdi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi kasbiy ta'lim va kasbga o'qitishda boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali yagona yondashuv asosida kasbga o'qitish, ilg'or xorijiy tajribalarni samarali joriy etish va xalqaro standartlarga mos bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni asosiy maqsad qilib belgiladi. Bugungi kunga qadar tizimda kuzatilgan tarqoqlik, ta'lim dasturlarining ish beruvchilar talabidan orqada qolishi

## KASBIY TA'LIM TIZIMIDA

hamda moddiy-texnik bazasining ma'naviy eskirgani kabi tizimli muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan qat'iy siyosiy iroda namoyon etildi.

Xususan, islohotlarning tub mohiyati yoshlarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalar, zamonaviy kompetensiyalar va kasbiy madaniyatni shakllantirish, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini erta kasbga yo'naltirish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Yangi yondashuvga ko'ra, kasbiy ta'lim shunchaki ijtimoiy himoya vositasi emas, balki mamlakatning inson kapitali borasidagi imkoniyatlarini to'liq ishga soluvchi iqtisodiy drayverga aylanishi lozim. Belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga ko'ra, 2030-yilga qadar xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlari joriy etilgan texnikumlar sonini keskin oshirish, 9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta'limga qamrovini 50 foizga yetkazish hamda dual ta'lim ulushini 40 foizgacha ko'tarish ko'zda tutilgan. Bu raqamlar ortida minglab yoshlarning taqdiri, oilalar farovonligi va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi yotibdi.

Mazkur maqolada yuqorida qayd etilgan Farmon va Qaror asosida kasbiy ta'lim tizimida ro'y berayotgan konseptual o'zgarishlar, boshqaruvning yangi vertikal tizimi, moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlari, ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yilayotgan talablar hamda dual ta'limni rivojlantirish istiqbollari ilmiy-tahliliy jihatdan yoritib beriladi. Ushbu o'zgarishlarning kompleks tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'lim tizimidagi islohotlar – bugungi kunning kechiktirib bo'lmaz zarurati va O'zbekistonning uchinchi Renessans poydevorini qurishdagi muhim qadamdir.

Kasbiy ta'lim tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati, eng avvalo, uning boshqaruv mexanizmi qanchalik samarali tashkil etilgani va moliyaviy barqarorligi ta'minlangani bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni ushbu sohada mavjud bo'lgan institutsional bo'shliqlarni to'ldirish va boshqaruv vertikalini mustahkamlashga qaratilgan konseptual o'zgarishlarni boshlab berdi.

So'nggi yillarda kasbiy ta'lim muassasalarining turli vazirlik va idoralarga tarqoq holda bo'ysunishi yagona davlat siyosatini yuritishda muayyan qiyinchiliklarni tug'dirayotgan edi. Islohotlar doirasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida Kasbiy ta'lim agentligi tashkil etilishi tizimdagi tarqoqlikka barham berdi. Endilikda Agentlik respublikadagi barcha texnikumlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va kasbiy ta'lim sohasini boshqaruvchi yagona vakolatli organga aylandi.

Agentlikning vakolatlari faqat ma'muriy boshqaruv bilan cheklanib qolmaydi. Farmonga muvofiq, Agentlik mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha kasbiy ta'lim tashkilotlari uchun majburiy bo'lgan ta'lim dasturlari mazmuni, malaka darajalari, o'qitish muddatlari va baholash mezonlarini belgilovchi asosiy regulyator vazifasini bajaradi. Bu esa ta'lim sifatining yagona standartini ta'minlash va “soyadagi” sifatsiz ta'lim xizmatlariga chek qo'yish imkonini beradi. Shuningdek, texnikumlar va o'quv kurslari bitiruvchilariga beriladigan davlat namunasidagi hujjatlar (diplom, sertifikat) bevosita Agentlik tomonidan rasmiylashtirilishi diplomlarning legitimligi va nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Har qanday ta'lim islohoti kuchli moliyaviy poydevorga tayanmas ekan, u kutilgan natijani bermaydi. Yangi qabul qilingan hujjatlarda kasbiy ta'limni moliyalashtirishning barqaror va rag'batlantiruvchi mexanizmlari joriy etilgan.

Xususan, 2026-yildan boshlab har yili Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasiga respublika budjetidan 600 milliard so'm miqdorida mablag' ajratilishi belgilandi. Ushbu mablag'lar texnikumlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy laboratoriya va ustaxonalarni jihozlashga yo'naltiriladi. Bu – soha tarixidagi eng yirik maqsadli investitsiyalardan biri bo'lib, ta'lim jarayonini nazariy qolipdan real amaliy ko'nikmalarga ko'chirish imkonini beradi.

Moliyalashtirishdagi yana bir innovatsion yondashuv bu – “natijaga asoslangan rag'batlantirish” tizimining joriy etilishidir. Ushbu qarorga ko'ra, 2026-yildan boshlab texnikumlar faoliyati bo'yicha Milliy reyting yuritiladi. Reyting natijalariga ko'ra eng yuqori o'rinni egallagan 50 ta texnikumning har biri bazaviy hisoblash miqdorining 3 000 baravari miqdoridagi bir martalik mablag' bilan mukofotlanadi. Ushbu mablag'larning 80 foizi moddiy-texnik bazani rivojlantirishga, 20 foizi esa ilg'or pedagog va

rahbar xodimlarni moddiy rag'batlantirishga yo'naltirilishi ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi.

Boshqaruvdagi eng muhim yangiliklardan biri – bu hududiy darajada ijro hokimiyati va biznes vakillari-ning ta'lim jarayoniga bevosita jalb etilishidir. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari raisligida Kasbiy ta'limni rivojlantirish hududiy tadbirkorlar kengashlari tashkil etilmoqda. Kengash tarkibiga hududdagi yirik sanoat korxonalari, klasterlar va ish beruvchi tashkilotlar rahbarlari kiritilgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi shunchaki kuzatuvchilik emas, balki quyidagi strategik masalalarni hal etishdan iborat:

- hudud iqtisodiyoti drayverlaridan kelib chiqib, o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan real ehtiyojni aniqlash;
- texnikumlarda dual ta'lim tizimini joriy etish va o'quvchilar amaliyotini korxonalarda tashkil qilish;
- bitiruvchilar bandligini ta'minlash va ta'lim dasturlarini bozor talabiga moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Bunday yondashuv “buyurtmachi”(ish beruvchi) va “ijrochi”(texnikum) o'rtasidagi dialogni institutsional darajaga ko'taradi. Natijada ta'lim muassasasi diplom berish uchun emas, balki hudud iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan, ertaga ish joyi tayyor mutaxassisni tayyorlashga ixtisoslashadi.

Yangi boshqaruv modeli markazlashgan nazorat (Agentlik), kuchli moliyaviy ta'minot (Jamg'arma) va mahalliy darajadagi moslashuvchanlik (Hududiy kengashlar) uyg'unligiga asoslangan. Bu triada kasbiy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligini ta'minlashning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Kasbiy ta'lim tizimidagi islohotlarning navbatdagi muhim bosqichi – bu ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish va sifat nazoratining mutlaqo yangi standartlarini joriy etishdir. Qarorda belgilangan vazifalar shunchaki binolarni ta'mirlash emas, balki ta'lim mazmuni va shaklini xalqaro talablarga moslashtiruvchi innovatsion “drayver”larni yaratishga qaratilgan.

Yangi tizimning eng o'ziga xos jihati – respublikaning har bir hududida bittadan, jami 14 ta “Ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari” tashkil etilishidir. Ushbu muassasalar oddiy texnikumlardan farqli o'laroq, hududdagi kasbiy ta'lim tizimining texnologik va metodik markazi (Hub) vazifasini bajaradi.

Ilg'or texnikumlarning strategik ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- **Zamonaviy amaliyot bazasi.** Ushbu texnikumlar hudud iqtisodiyotining o'ziga xosligidan kelib chiqib, eng so'nggi rusumdagi laboratoriya va ustaxona jihozlari bilan ta'minlanadi. Bu boshqa texnikumlarda mavjud bo'lmagan yuqori texnologiyali uskunalarda ishlash ko'nikmasini shakllantirish imkonini beradi.

- **Akademik mobillik va ijtimoiy ta'minot.** Yangi tartibga ko'ra, hududdagi boshqa texnikumlarning o'quvchilari amaliy mashg'ulotlarni o'tash uchun ushbu ilg'or texnikumlarga yuboriladi. Eng muhimi, davlat bu jarayonda o'quvchilarni bepul yotoqxona, oziq-ovqat va transport bilan to'liq ta'minlashni o'z zimmasiga olmoqda. Xususan, oziq-ovqat uchun bazaviy hisoblash miqdorining 15 foizi miqdorida mablag' ajratilishi belgilangan.

- **Pedagoglar uchun malaka markazi.** Ilg'or texnikumlar nafaqat o'quvchilar, balki ishlab chiqarish ta'limi ustalari uchun ham asosiy malaka oshirish maydonchasi bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu maqsadlar uchun 2026-2027-yillarga mo'ljallangan maxsus qurilish va jihozlash dasturi tasdiqlangan bo'lib, u Nukus, Andijon, Buxoro va boshqa markazlardagi obyektlarni qamrab oladi.

Islohotlarning yana bir inqilobiy jihati – norasmiy ta'limni tan olish tizimining yaratilishidir. Farmonga asosan, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimidagi “Kasbiy ko'nikmalar markazlari” 2026-yil yakuniga qadar “Malakani baholash markazlari”ga aylantiriladi.

Bu nimani anglatadi? Avvallari fuqaro biror hunarni mustaqil yoki “usta-shogird” an'anasi asosida o'rganagan bo'lsa-da, uni tasdiqlovchi hujjati yo'qligi sababli malakali ishchi sifatida tan olinmas edi. Yangi tizimda esa norasmiy va informal ta'lim orqali egallangan ko'nikmalar ushbu markazlarda baholanib, rasmiy malaka pasporti yoki sertifikati beriladi.

# ISLOHOTLAR – TARAQQIYOT POYDEVORI

Davlat malaka talablarini bosqichma-bosqich kuchaytirib bormoqda. Xususan, 2027-yil 1-yanvardan boshlab Namangan, Samarqand va Toshkent shaharlarida turizm, kosmetologiya va umumiy ovqatlanish sohalarida, 2027-yil 1-iyundan qurilish sohasida, 2028-yildan esa butun respublika bo'ylab barcha kasblar bo'yicha ishga qabul qilishda malaka darajasiga mos diplom yoki sertifikatga ega bo'lish majburiy etib belgilanmoqda. Bu “soyadagi iqtisodiyot”ga barham berish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning samarali mexanizmidir.

O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimi endilikda o'z qo'big'ida o'ralashib qolmay, jahon standartlariga integratsiyalashuv yo'lini tanladi. Qarorga ko'ra, Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti faoliyati tubdan transformatsiya qilinib, ta'lim dasturlari xalqaro standartlar asosida yangidan ishlab chiqilmoqda.

Strategik maqsad – 2030-yilga qadar xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlari joriy etilgan texnikumlar sonini 250 taga yetkazishdir.

Shuningdek, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2026-yildan boshlab har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun “Kasbiy mahorat milliy tanlovi” o'tkaziladi. Tanlov WorldSkills xalqaro musobaqalari mezonlari asosida tashkil etilib, uning g'oliblariga xalqaro maydonda O'zbekiston sharafigini himoya qilish huquqi beriladi. G'oliblar va ularning ustozlari uchun oltin, kumush va bronza medallariga mos ravishda yuqori miqdordagi pul mukofotlari(BHMning 100 baravarigacha) joriy etilgan.

“Ilg'or texnikumlar” tarmog'ining yaratilishi va malakani baholashning obyektiv tizimiga o'tilishi – O'zbekistonda kasbiy ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiquvchi poydevordir.

Kasbiy ta'lim tizimining oldida turgan eng katta muammolardan biri – bu bitiruvchilarning nazariy bilimi va ish beruvchi kutgan amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Ushbu muammoning eng samarali yechimi sifatida jahon tajribasida o'zini oqlagan dual ta'lim tizimi tanlangan. Qaror bilan ushbu yo'nalishda strategik maqsad belgilandi: 2030-yilga qadar kasbiy ta'lim tizimida dual ta'lim ulushini amaldagi 9 foizdan 40 foizga yetkazish. Bu ulkan maqsadga erishish uchun davlat “ma'muriy buyruqbozlik” emas, balki o'quvchi va ish beruvchi uchun manfaatli bo'lgan quyidagi iqtisodiy mexanizmlarni ishga solmoqda.

Ilgari o'quvchilar korxonada amaliyot o'taganda ko'pincha bepul ishchi kuchi sifatida qaralar va bu ularni motivatsiyani so'ndirar edi. Yangi islohotlar doirasida 2026-2027-o'quv yilidan boshlab tubdan yangi tartib joriy etilmoqda:

- **Kafolatlangan stipendiya:** dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchilarga har oyda bazaviy hisoblash miqdorining(BHM) bir baravari miqdorida stipendiya to'lanadi. Ushbu to'lovlar shaffoflikni ta'minlash maqsadida maxsus elektron platforma orqali amalga oshiriladi.
- **Ish staji:** o'quvchining dual ta'lim shaklida korxonada bilim va ko'nikma olgan davri uning umumiy mehnat stajiga qo'shib hisoblanadi. Bu yosh mutaxassisning mehnat faoliyatini erta boshlashi va ijtimoiy himoyalaniishi uchun katta imkoniyatdir.
- **Baholash tizimi:** stipendiya to'lashda “boqimandalik” kayfiyatini yo'qotish maqsadida nazorat mexanizmi o'rnatilgan. Agar ish beruvchi o'quvchining kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi yoki intizomini qoniqarsiz deb baholasa, stipendiya to'lash to'xtatiladi.

Tadbirkorlarni ta'lim jarayoniga jalb qilish faqat vatanparvarlik shiorlari bilan emas, balki aniq iqtisodiy foyda bilan amalga oshiriladi. Yangi qarorga ko'ra, texnikumlar bilan hamkorlik qilgan korxonalar uchun quyidagi imtiyozlar paketi taqdim etilmoqda:

- **Imtiyozli kredit liniyalari.** Texnikumlar bilan dual ta'lim dasturlarini tashkil etgan ish beruvchilarga asosiy vositalarni sotib olish va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 5 milliard so'mgacha kredit ajratiladi.
- **Davlat xaridlarida ustunlik.** Davlat xaridlarida ishtirok etishda texnikumlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarga nisbatan 15 foiz miqdorida preferensiya(narx ustunligi) beriladi.
- **Reyting ballari.** O'quvchilarni o'qitgan va bitiruvchilarni ishga olgan tadbirkorlarga “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi” platformasida qo'shimcha rag'batlantiruvchi ballar beriladi.

Islohotlar texnikumlarni faqat ta'lim muassasasi emas,

balki bozor ishtirokchisiga aylantirishni ko'zda tutadi. Endilikda davlat organlari va tashkilotlariga o'zlarining ayrim funksiyalarini outsorsing asosida texnikumlarga berishga ruxsat etildi. Bularga quyidagilar kiradi:

- kompyuter texnikalariga xizmat ko'rsatish;
- isitish, sovitish va elektr tizimlariga servis ko'rsatish;
- avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish;
- ommaviy axborot vositalarida targ'ibot ishlari (media xizmatlar).

Bu yangilik texnikumlarga qo'shimcha daromad topish, o'quvchilarga esa real buyurtmalar ustida ishlab pul topish va tajriba orttirish imkonini beradi.

Kasbiy ta'lim tizimidagi har qanday infratuzilmaviy yoki moliyaviy o'zgarishlar, agar ular malakali pedagoglar salohiyati va kasb tanlovini ongli ravishda amalga oshirgan o'quvchilar bilan uyg'unlashmasa, kutilgan samarani bermaydi. Qaror bilan O'zbekistonda ilk bor kasbga yo'naltirishning bog'cha yoshidan boshlab mehnat bozorigacha bo'lgan yaxlit, uzluksiz zanjiri yaratildi.

Shu kungacha kasb tanlash ko'pincha maktabning 9-sinfida, majburiy tartibda yoki tasodifiy tanlov asosida amalga oshirilardi edi. Yangi islohotlar ushbu eskirgan yondashuvga chek qo'yib, 2026-2027-o'quv yilidan boshlab 4 bosqichli kasbga yo'naltirish tizimini joriy etmoqda.

Bu tizim bolaning yoshi va psixofiziologik rivojlanishiga mos ravishda quyidagicha tashkil etiladi:

- **1-bosqich(Maktabgacha ta'lim):** 5 yoshdan boshlab “**Atrofimizdagi kasblar**” dasturi orqali bolalarda ilk mehnat ko'nikmalari va kasblar haqida boshlang'ich tasavvurlar o'yin shaklida shakllantiriladi.
- **2-bosqich(Boshlang'ich sinflar, 1–4): “Kasblar alifbosi”** dasturi doirasida o'quvchilarga turli kasblarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati tushuntirilib, ularning qiziqishlari uyg'otiladi.
- **3-bosqich(O'rta sinflar, 5-6): “Kasblar olami”** dasturi orqali o'quvchilarning aniq sohalarga bo'lgan moyilligi aniqlanadi va kelajakdagi tanlovga zamin yaratiladi.
- **4-bosqich(Yuqori sinflar, 7–9): “Mening kelajakdagi kasbim”** dasturi eng hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Bunda maktab psixologlari va maslahatchilari o'quvchining temperamenti, qobiliyati va qiziqishlarini chuqur diagnostika qiladi.

Natijada 2028-yildan boshlab o'quvchilarni texnikumlarga qabul qilish tasodifiy emas, balki 9-sinf yakuni bo'yicha o'tkaziladigan imtihon natijalari va kasbiy tashxis xulosalari asosida amalga oshiriladi. Bu esa kasbiy ta'limga “o'qishga kira olmaganlar” emas, balki aniq maqsadga ega iqtidorli yoshlar kelishini ta'minlaydi. Shuningdek, kasblar nufuzini oshirish maqsadida 5-may sanasi “Kasb va mehnat kuni” sifatida belgilandi.

Texnikumlarda ta'lim sifatini oshirishning asosiy kataliti – bu ishlab chiqarish ta'limi ustalari va pedagoglardir. Davlat ularning maqomini ko'tarish uchun bir necha yo'nalishda inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda.

- **Yuklamani maqbullashtirish:** ta'lim sifatini oshirish maqsadida bir nafar ustaga 20 nafar o'quvchi to'g'ri kelishi bo'yicha yangi cheklangan normativ belgilandi. Bu tizim 2026-yilda 50 ta texnikumda, 2027-yildan esa barchasida to'liq joriy etiladi.
- **Ish haqini oshirish:** 2026-yil 1-yanvardan boshlab texnikum ustalarining bazaviy tarif stavkalari umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi toifali o'qituvchisi maoshiga tenglashtiriladi.
- **Direktorlarga moliyaviy erkinlik:** texnikum direktorlariga mehnat bozori vaziyatidan kelib chiqib, ustalarga maoshining 15 baravarigacha miqdorda qo'shimcha ustama va rag'batlantirish to'lovlarini mustaqil belgilash huquqi berildi. Bu esa xususiy sektordagi malakali mutaxassislarni(masalan, tajribali AT mutaxassisi yoki muhandisni) ta'limga jalb qilish imkonini beradi.

Pedagoglarning o'z ustida ishlashini rag'batlantirish uchun aniq va shaffof mexanizmlar ishga tushirilmoqda:

- **Xorijiy tajriba:** har yili eng yuqori natija ko'rsatgan 50 nafar ishlab chiqarish ta'limi ustasi va o'qituvchilari davlat hisobidan rivojlangan davlatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuboriladi.
- **Til bilish ustamasi:** chet tilini bilish darajasi bo'yicha C1 sertifikatiga ega bo'lgan maxsus fan o'qituvchilariga 100 foiz, B2 darajasi uchun esa 50 foiz

miqdorida oylik ustama to'lash tizimi joriy etilmoqda (PQ-316 “Yo'l xaritasi”ga asosan).

- **Rahbarlar uchun KPI:** texnikum direktorlari va o'rinbosarlari uchun ham motivatsiya mavjud. Ular menejerlik sertifikatini qo'lga kiritgan taqdirda, lavozim maoshiga mos ravishda 50 foiz va 30 foiz ustama olish imkoniyatiga ega bo'laladi.

Bog'chadan boshlangan to'g'ri yo'nalish va yuqori maosh oluvchi, zamonaviy fikrlaydigan pedagoglar – Yangi O'zbekistonning malakali kadrlar armiyasini shakllantiruvchi asosiy kuchga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va Qarori bilan boshlangan kasbiy ta'lim islohotlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub burilish yashashi kutilmoqda. Ushbu hujjatlar shunchaki ma'muriy o'zgarishlar emas, balki 2030-yilga qadar mamlakatning “inson kapitali”ni rivojlantirish bo'yicha aniq indikatorlarga (KPI) asoslangan “Yo'l xaritasi”dir.

Davlat oldiga qo'yilgan vazifalar juda ambitsiyali bo'lib, ularning ijrosi kasbiy ta'lim tizimini mutlaqo yangi darajaga olib chiqadi. Qarorda belgilangan asosiy maqsadli ko'rsatkichlarga ko'ra, 2030-yilga qadar:

- **Xalqaro integratsiya:** xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlari joriy etilgan texnikumlar soni kamida 250 taga yetkaziladi. Bu yuz minglab yoshlarning O'zbekistonda turib jahon tan olgan diplomga ega bo'lishini anglatadi.
- **Qamrov ko'lamini kengaytirish:** 9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta'lim bilan qamrovini amaldagi 29 foizdan 50 foizga oshirish rejalashtirilgan. Bu yoshlar bandligini ta'minlash va jinoyatchilikning oldini olishda muhim ijtimoiy omil bo'ladi.
- **Amaliyot ustuvorligi:** tizimda dual ta'lim ulushini 40 foizga yetkazish orqali “diplomli ishsizlar” muammosiga barham beriladi.
- **Pedagoglar malakasi:** xorijda malaka oshirgan va stajirovka o'tagan pedagoglar soni 2 500 nafarga yetkazilib, ular tizimga ilg'or metodikalarni olib kiradilar.

Shuningdek, tizim barqarorligini ta'minlash maqsadida 2030-yilga qadar texnikumlar faoliyatini tugatish va ularning yer maydonlarini xususiy lashtirishga moratoriy e'lon qilingani davlatning ushbu sohaga uzoq muddatli strategik resurs sifatida qarayotganidan dalolat beradi.

Islohotlarning jamiyat hayotiga eng kuchli ta'sir qiluvchi nuqtasi – bu ishga qabul qilishda malaka talablarining qat'iy lashtirilishidir. Farmonga muvofiq, bosqichma-bosqich joriy etilayotgan yangi tartib “soyadagi iqtisodiyot”ni qisqartirish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi:

- 2027-yil 1-yanvardan: Namangan, Samarqand va Toshkent shaharlarida turizm, kosmetologiya va umumiy ovqatlanish sohalarida ishlovchilar uchun malaka diplom yoki sertifikati majburiy bo'ladi.

- 2027-yil 1-iyundan: ushbu talab qurilish sohasi xodimlariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

- 2028-yil 1-yanvardan: Butun respublika hududida barcha kasb va lavozimlar uchun malaka hujjatiga ega bo'lish talabi to'liq kuchga kiradi.

Bu o'zgarish “hunarni ko'chada o'rganish” an'anasini zamonaviy, sertifikatlashgan tizimga o'tkazadi. Norasmiy va informal yo'l bilan bilim olgan fuqarolar uchun esa Malakani baholash markazlari orqali o'z ko'nikmalarini qonuniylashtirish imkoniyati yaratildi.

Xulosa qilib aytganda, “Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish – taraqqiyot poydevori” degan g'oya ostida boshlangan ushbu jarayonlar O'zbekistonning uchinchi Renessans poydevorini qurish yo'lidagi muhim qadamdir. Yagona boshqaruv tizimining (Agentlik) yaratilishi, har yili ajratiladigan 600 milliard so'mlik moliyaviy paket, “Ilg'or texnikumlar” tarmog'i va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlovchi imtiyozlar – bularning barchasi yagona maqsadga xizmat qiladi. Bu maqsad – yoshlarimizni zamonaviy kasb egasi qilib tarbiyalash, ularning farovon kelajagini ta'minlash va O'zbekiston iqtisodiyotini yuqori malakali kadrlar salohiyatiga tayangan holda rivojlantirishdir.

Endilikda asosiy vazifa – ushbu yaratilgan huquqiy va moliyaviy imkoniyatlardan joylarda samarali foydalanishni tashkil etish, ta'lim muassasalari va biznes hamjamiyati o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. Zero, bugungi texnikum o'quvchisi – ertangi kunning bunyodkoridir.

Zayniddin XUDOYBERDIYEV,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

# Ta'lim orqali barqaror taraqqiyot: “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ustuvor yo‘nalishi

Munosabat

Bugun davlatlar o‘rtasidagi raqobat tabiiy resurslar, sanoat yoki infratuzilma bilan belgilanmaydi. XXI asrda haqiqiy ustunlikni ta’limga sarmoya kiritgan jamiyatlar qo‘lga kiritayotganini bir qancha mamlakatlar misolida ko‘rish mumkin. Chunki ta’lim bu faqat bilim berish jarayoni emas, balki kelajakni oldindan belgilab beruvchi strategik tanlovdir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’limga berilgan ustuvorlik tasodifiy emas, balki ongli va uzoqni ko‘zlagan qarordir.

Mazkur strategiyada belgilangan ta’lim sohasidagi islohotlar alohida tashabbuslar majmuyi emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘langan, uzoq muddatli natijalarga yo‘naltirilgan tizimli yondashuvni ifodalaydi. Ushbu chora-tadbirlar orqali, eng avvalo, ta’lim olish imkoniyatlari kengaytiriladi va hududiy hamda ijtimoiy tafovutlarni bosqichma-bosqich kamaytirish maqsad qilinadi.

Avvalo, maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasining 80 foizga yetkazilishi bolalarning katta qismi erta yoshdan ta’lim jarayoniga jalb etilishini anglatadi. Bolalarni maktabga tayyorlov guruhlar bilan 100 foiz qamrab olish orqali esa maktabga kelayotgan o‘quvchilarning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi bir xil bo‘lishiga erishiladi. Bu esa keyingi bosqichlarda o‘zlashtirish darajasidagi tafovutlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini toza ichimlik suvi hamda zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan 100 foiz ta’minlash orqali sog‘lom va xavfsiz ta’lim muhiti shakllanadi. Natijada ta’lim sifati faqat dars mazmuni bilan emas, balki bolalarning jismoniy holati va kundalik sharoitlari bilan ham mustahkamlanadi.

Ta’lim mazmunini yangilash doirasida 1 000 nomdagi yangi avlod darslik majmualarini yaratish va ular asosida planshetlar uchun 1 000 ta multimedia dasturlarini joriy etish o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartiradi. Ushbu islohotlar natijasida ta’lim yodlashga asoslangan modeldan tahliliy fikrlash, muammolarni hal qilish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bosqichga o‘tadi. Bu esa o‘quvchilarning zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini oshiradi.

Chet tillarni o‘qitish sifatini yaxshilash maqsadida ta’lim muassasalariga 2026-yili 600 nafar xorijlik mutaxassis (“til egalari”)ni jalb etish orqali til muhitini kuchaytirish rejalashtirilgan. Natijada xorijiy tillarni bilish darajasi oshib, yoshlarning xalqaro ta’lim va mehnat bozoriga chiqish imkoniyatlari kengayadi.

Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar ta’lim islohotlarining eng muhim tayanchidir. Xususan, 500 ming nafar maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim xodimlarining malakasini uzluksiz oshirish, pedagog xodimlarning o‘rtacha ish haqini 2 barobar oshirish orqali kasb nufuzi va motivatsiyasi sezilarli darajada kuchaytiriladi. Bundan tashqari, ehtiyoj yuqori bo‘lgan hududlar uchun pedagog kadrlarni davlat granti asosida tayyorlash ulushini 17 foizga yetkazish kadrlar yetishmovchiligi muammosini yumshatadi.

Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari sonini 1 000 taga yetkazish, ularni rivojlantirish uchun 1 trillion so‘m miqdorida imtiyozli kreditlar ajratish hamda nodavlat maktablarda tahsil olayotgan o‘quvchilar ulushini 3 barobarga oshirish ta’lim sohasida sog‘lom raqobat va tanlov muhitini shakllantiradi. Bu esa ta’lim xizmatlari sifati oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ushbu aniq raqamlar bilan belgilangan islohotlar natijasida O‘zbekiston ta’lim tizimi qamrovni kengaytirishdan sifatni oshirish bosqichiga o‘tadi. Ta’lim orqali bilimli, malakali va zamonaviy fikrlaydigan kadrlar tayyorlanadi, bu esa iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va uzoq muddatli taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Xurshidbek ABDUAZIMOV,  
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti  
kichik ilmiy xodimi

## Ulug‘ ishlar o‘zgarish- lardan boshlanadi

Xabaringiz bor, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yilning sarhisobi arafasida yana bir muhim qaror imzolandi. 2025-yil 27-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirishga bag‘ishlangan qaror jamiyatimizda ilm-fanning innovatsion rivojlanishiga katta bir poydevor yaratmoqda. Mazkur qaror yurtimizda bo‘lgan barcha olimlar, xususan, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti ilmiy xodimi, akademik, professor olimlarini, shuningdek, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarini juda quvontirdi.

Qarorning asosiy maqsadi yosh olimlar safini kengaytirish va ularning maqsadli faoliyati uchun qulay muhit yaratishdan iborat. Bunda pedagogika, axborot texnologiyalari, tibbiyot, kimyo,

rani O‘zbekiston ilm-faniga qayta integratsiya qilish belgilandi. Bu albatta yurtimizda faoliyat yurituvchi olimlarning kvalifikatsiyasini yuqori darajada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi.

## Toifalarga qarab rag‘bat

2026-yil 1-apreldan boshlab o‘z tizimida-gi ilmiy muassasalarda xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda ilmiy xodimlar faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini(KPI) va ilmiy muassasalar faoliyati samaradorligini baholash bo‘yicha reyting tizimining joriy etilishi – ilmiy muassasalar reytingi yil yakuni bo‘yicha kompleks indikatorlar asosida aniqlanib, “yashil”, “sariq”, “qizil” toifalarga ajratilishi ilmiy-tadqiqot ishlari sifati, olimlarning salohiyati va mehnatini yuzaga chiqarishda o‘lchov vazifasini o‘taydi.

2026-yil 1-martga qadar xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda ilmiy muassasalar faoliyatini to‘liq xatlovdan o‘tkazib, istiqbolsiz va sama-

# Ilm-fan islohotlari: yangi bosqich, yangi maqsadlar va kutilayotgan natijalar

sanoat va boshqa sohalardagi ilmiy-tadqiqotlar rivojlanishiga erishish ko‘zda tutiladi. 2030-yilga qadar olib boriladigan amaliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu borada yangi ilmiy ishlanmalar va tijoratlashtirishdan olinadigan mablag‘lar hajmini 3 baravarga oshirish, ilmiy xodimlar tarkibida yoshlar ulushini 60 foizgacha yetkazish, nufuzli xalqaro ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalar sonini 4 baravarga oshirish, akademik va professorlarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini 5 baravarga ko‘tarishni maqsad qilgani bilan ahamiyatlidir.

## Yurgan daryo...

Bugunning yoshlari zehni, zakovati bilan hech bir ziyolilardan qolishmasligini isbotlashmoqda. Buni dunyoning nufuzli OTMLarida tahsil olayotgan, o‘z yutuqlari bilan ko‘zimizni quvnatayotgan o‘g‘il-qizlarimiz misolida ko‘rish mumkin. Yosh avlod xorijiy tilni mukammal biladi, axborot texnologiyalaridan yaxshi xabardor, fizika, kimyo, meditsina, qurilish, raqamli texnologiya sohalari shiddat bilan rivojlanayotgan ayni bir vaqtda – ilmiy-tadqiqot ishlari bilan erkin mashg‘ul bo‘lishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilayotgani – yoshlar uchun cheksiz imkoniyatlar eshigini ochdi.

Ilmiy-tadqiqot institutimiz yosh olimlar va pedagoglarning xorijiy davlatlarda malaka oshirishi, pedagogika sohasidagi islohotlarni o‘rganish va istiqbolli pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish uchun Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Malayziya, Rossiya, Ozarboyjon, Tojikiston kabi davlatlar bilan hamkorlikda ish olib bormoqda. Xorijiy davlatlarning bolalar bog‘chasidan tortib, umumta’lim maktablari-yu OTMLarida bo‘lib ish o‘rgandilar, hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Qarorda xalqaro hamkorlikda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlar sonini 3 baravarga oshirish nazarda tutilgani ayni muddao bo‘ldi. Xorijiy mamlakatlarda faoliyat yurituvchi ilmiy diaspo-

radorigi past bo‘lgan mavjud ilmiy yo‘nalishlar hamda laboratoriyalar sonini maqbullashtirish orqali yangi ilmiy guruh va laboratoriyalar tashkil etilishi ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini oshirishga yordam beradi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab ilmiy-tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, yosh olimlarni jalb qilish va strategik ahamiyatga ega ilmiy yo‘nalishlarni barqaror moliyalashtirish maqsadida Fanlar akademiyasi jamg‘armasi tashkil etilishi – yosh olimlarni rag‘batlantirish mexanizmini yaratish ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirishga zamin yaratishi ham ayni muddao bo‘ldi.

Ta’kidlanganidek, yangi qaror O‘zbekiston ilm-fani rivojida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Unda Fanlar akademiyasi faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan aniq istiqbolli yo‘nalishlar va samarali mexanizmlar belgilab berilgan.

Davlat taraqqiyotida ilm-fanning o‘rni beqiyos ekanini inobatga olgan holda, qarorda ilmiy-tadqiqot muassasalarining salohiyatini oshirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash hamda fan – ta’lim – ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa Fanlar akademiyasi zimmasiga yanada katta mas’uliyat yuklaydi.

Yangi hujjat Fanlar akademiyasi faoliyatini yangi mazmun bilan boyitib, ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish hamda yosh olimlar uchun keng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi. Muhimi, qaror ijrosi natijasida fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy hamkorlik yanada mustahkamlanib, jarayon mamlakatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Xolboy IBRAIMOV,  
Qori Niyoziy nomidagi  
Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori,  
pedagogika fanlari doktori,  
O‘zRFA akademigi



## Tajriba

# Otajonim o'g'itlari: bir muallimdan ming muallimga

Bugun men butun umrining 55 yilini o'quvchilarning bilimli bo'lishiga sarflagan oliy toifali matematika o'qituvchisi, otam – Toshvoy Karimov haqida eslab o'tmoqchiman. Kasbiga nihoyatda sadoqatli otam “Hech qachon o'quvchining bilim olishdek haqqiga xiyonat qilma!” degan aqidaga umrbod amal qildi va mendan ham shuni talab qilardi.

Mana, otamning duosi bilan o'qituvchilik kasbini davom ettirayotganimga 49 yil bo'ldi. Lekin har safar o'quvchilarga dars o'tayotganimda yoki biror-bir masala, misolning yechimini hal qilayotganimda beg'ubor otajonimning qiyofasi ko'z oldimda gavdalanadi. Ko'zoynagining ustidan jiddiy kuzatib o'tirishini, ba'zan miyig'ida kulib, “To'xta, to'xta, men ham oldin shunday o'ylovdim, sen falon teoremadan foydalaning-chi” deyishini entikib sog'inaman.

Yaratganga shukrlar qilamanki, otam rahmatli menga imkoniyati darajasidan ortiqroq mehnatini sarflab, 12 yoshimdan matematika ilmining sir-asrorlarini o'rgatdi. Turli masala va misollarni oson hisoblash yo'llari haqida tushuntirib ketdi, ammo nazarimda ulardan o'ndan bir qisminigina o'zlashtirib olishga ulgurdim, xolos. Maktabni tugatib otamning yo'lidani borishni tanladim va ulardek ustoz bo'lishga bor kuch-g'ayratimni sarfladim.

Otam umrining so'ngigacha maktabdagi faoliyatim bilan qiziqdi va ba'zi muammoli vaziyatlarda menga chiroyli yechim topib berdi. Ustozim – otam bilan asosan 30 yil shug'ullangan bo'lsam, undan nafaqat hisob ilmi, balki o'quvchi va uning shaxsiyati hamda uni komillikka yetaklovchi qimmatbaho, ibratli o'g'itlarini o'rgandim va eslab qoldim. Hozir yoshim 70 ni qoralayotgan bo'lsa-da, hamon ulardan o'z pedagogik faoliyatimda foydalanib kelmoqdaman. Shu o'rinda, ustozlarimiz ham quyidagi muqaddas oltin qoidalaridan ish jarayonida foydalansalar maqsadga muvofiq bo'lardi, deb o'yladim:

1. Hech qachon o'quvchi haqqiga xiyonat qilma.
2. Har bir darsga atroflicha tayyorgarlik ko'rib kirgin.
3. O'quv jarayonida ba'zi o'qituvchilar darsga kela olmaganida, rahbarlardan biri senga shu darsga kirib turishingni aytadi. Sen bugun u darsga kira olmasligingni, ertadan boshlab bo'sh vaqtingda kirib turishingni aytasan. Sababi, bugun shu sinfga hech qanday tayyorgarlik kirishiga to'g'ri keladi. Bu birinchidan, o'quvchilarning bilimsiz bo'lib qolishiga, ikkinchidan, sening bolalar va ota-onalar o'rtasida hurmatsizlanib qolishiga olib keladi. Shu sababli, mavzuni bilib, uyda yaxshilab tayyorlanib, ertasiga darsga kirgan ma'kul.
4. Doskaga chap tomondan o'ng tomonga rejali, aniq, bir tekis va tushunarli qilib yozgin.
5. Qaysidir sinfga birinchi bor darsga kirganingda unutma, bugun sen shu sinfdagi 30 o'quvchining oilasiga kirib borasan. Zero, uyda dasturxon ustidagi suhbatning bir qismi, albatta, o'quvchining maktabdagi hayoti haqida bo'ladi. Bunda ota-onalar farzandining maktabi va undagi turli hodisalardan xabardor bo'ladi.
6. Sozanda biror kuyni rubob yoki tanburda ijro etayotganda o'ng qo'li bilan chalayotgan bo'lsa, chap barmoqlari ham ishlaydi-ku. Shuningdek, o'quvchilarning o'tirib biror misolning yechimini izlayotganida o'ng qo'l barmoqlari bilan yozayotgan bo'lsa, chap qo'l barmoqlari shu misolning ustida harakatlansin. Shunda to'g'ri yechimga erishishlari oson bo'ladi.
7. Ertangi kun darslarning mavzusiga shunday tayyorlanginki, unda 45 daqiqaning har bir daqiqasi hisobda bo'lsin.
8. Yangi mavzuni nihoyatda aniqlik bilan 10–12 daqiqada o'quvchilarga yetkazib bergin. Aks holda sinfdagi hatto yaxshi o'qiydigan o'quvchilarning ham



zerikib, qabul qilish darajasi susayib qoladi.

9. Unutma, har darsingni imkon boricha ko'rgazmali yoki texnik vositalardan foydalanib o'tgin.

10. Har bir o'quvchi ulkan qalbga ega. Unga nihoyatda ehtiyotkorlik va hurmat bilan yondashgin.

11. Sinf doskasining old tomoni, xuddi ulug' san'atkorlar Shukur Burhonov, Olim Xo'jayev ijod qilgan sahna kabi muqaddas. Har safar unga pokizalik bilan qadam qo'ygin.

12. Dars jarayonida imkon darajasida bobokalonlarimiz va xorijlik olimlarning ilmiy merosidan foydalanishga harakat qilgin.

13. Mavzuni o'quvchilarga shunday mohirlik bilan tushuntirginki, o'quvchilarning bu fanni tushunib bo'lmaydigan abstrakt fan degan xayoldan uzoqda bo'lsinlar.

14. Dars jarayonida o'quvchilarning toliqib, zerikib qolganini sezsang, darhol biror-bir to'rtlik yoki qisqagina rivoyat aytib ber. Shunda o'quvchilar diqqatlarini yana qayta sen tomon yo'naltiradi.

15. O'qituvchi nafaqat o'quvchilarga, hatto ularning ota-onalariga ham ibrat bo'lishi kerakligini unutma.

16. Maktabda doim ozoda, mavsumga mos o'qituvchilar formasida bo'lgan. Yana shuni ham unutmaginki, vinetka uchun rasmga tushadigan bo'lsang, turli kiyimlarda emas, kunda sinfga kirib dars o'tadigan o'qituvchilik formasida tushgin. Shunda bir necha yillardan so'ng o'quvchilarning seni qanday o'qituvchi bo'lgan bo'lsang shunday xotirlaydi.

17. Esingda tut! Sening gapirish ohanging, yurishing, muomalang, o'z vazifangga sadoqatliging, shuningdek, qat'iyatligingga o'quvchilarning taqlid qiladi.

18. Hech qachon ovozingni ko'tarma, o'quvchining shaxsiyatiga tegadigan so'zlarni ishlatma.

19. O'quvchi bilimini baholashda odil bo'l.

20. O'z ustingda ishlashni, izlanishni to'xtatma. Agar shunday kun kelsa, qalamni stol ustiga qo'ygin-da, maktabdan chiqib ket.

21. O'qituvchilik kasbini bo'yingga oldingmi, albatta oilangga 51 foiz, maktab va o'quvchilarga 49 foiz vaqtingni taqsim qilasan. 60 foizga 40 foiz bo'lsa ham sen ustoz sifatida kutilgan natijaga ega bo'la olmaysan.

22. Qachonki vaqti kelib mehnat faoliyatingga 15–20 yil bo'lsa ham, yosh o'qituvchilarni o'zingga ustoz deb bil.

23. Ta'lim va tarbiya chambarchas bog'liq ekanligini unutma! Men o'quvchiga ta'lim bersam bo'ldi, tarbiyani ota-onasi beradi, deb o'ylama. Darsda vazifangga sadoqating, intizoming, harakatlaring, rejali ish yuritishing va huda-behudaga vaqtni sarflamay o'zingni odilona tutishingning o'zi tarbiya. Unutma, bola aytganingni emas, o'z ko'zi bilan ko'rganini qiladi.

24. Bugungi o'tiladigan mavzuni 3 qismga bo'lib o'tishni rejalashtir:

- 1) Avvalgi mavzu.
- 2) Bugungi mavzu.
- 3) Keyingi darsda o'tiladigan mavzu.

Buni shunday tushungin: bugungi mavzuni tushuntirishda albatta avvalgi mavzudan foydalansan va keyingi o'tiladigan mavzuga ozgina bog'lab qo'yasan.

25. Darsga qo'ng'iroq chalinganda kirib, dars tugashiga qo'ng'iroq bo'lganda o'quvchilarga sinfdan chiqishga ruxsat ber. Dam olish vaqtida bolani sinfda ushlab o'tirish befoyda.

Rahmatulla KARIMOV,  
Uchtepa tumanidagi  
81-IDUM matematika fani o'qituvchisi,  
O'zbekiston xalq o'qituvchisi

## Mulohaza

Kunlik yumushlarim bilan shaharga otlandim. Tabiiyki, men uchun eng yaxshi transport bu – avtobus. Tabiat go'zalligidan bahra olaman. Avtobus o'z yo'nalishida harakatlanib, bekatlarda to'xtab, odam mindiradi va ularni manziliga eltadi.

Men esa Abdulla Avloniyning “Tanlangan asarlar”ini o'qib, o'zimcha tahlil qilib ketyapman. Bexosdan chamasi 55–60 yoshlar oralig'idagi ayol kishi menga “muallimga o'xshaysiz-ey! Mabodo o'qituvchi emasmisiz?” deb qoldi.

Tasdiqlagan kishi bo'lib boshimni qimirlatishimni bilaman dardini dasturxon qilib ketsa bo'ladimi?! Nima emish, hozirgi muallimlar bolalarni tarbiya qila olmayotganmish, na otasining, na onasining aytganini qilar ekan.

Vaziyatga oydinlik kiritishga harakat qildim.

– Qaysi muallim bolangizga yaxshi tarbiya bermayapti? – deb so'radim.

– Sinf rahbaridan boshlab hammasi, – deydi.

– Muammo nimada? – so'rayman.

## Tarbiyaning tarozisi kimda?

– Na uy yumushlariga qarashadi, na chaqirsang javob beradi.

Bu yil 11-sinf ekan o'g'li. “Sigaret chekadi, nos chekadi, freshmi, allambalo ichimliklar ichadi. Ertasini o'ylasam qo'rqa-man-da”, deya keyingi bekatda tushib qoldi.

Bolani boshidan, niholni yoshidan asrang, deb bejiz aytishmagan. Shuning uchun ham yozmasam bo'lmaydi. Ha, yozaman, faqat “Ma'rifat”ga yozaman. Zero, mutasaddilar eshitib masalaga yanada jiddiy yondashishsin. Yoshlar kamolotiga katta e'tibor berilayotgan shukuhli kunlarda tarbiyaning tarozisi kimda? Muallimdami? Yo farzand katta qilayotgan ota-onalardami?

Aslida qaysi biri to'g'ri? Birinchi tarbiyalab, keyin ta'lim bergan yaxshimi yoki aksincha? Qiyin savol-a? Dabdurustdan javob berish mushkul, albatta.

Tarbiya – o'ta nozik jarayon. Ham jismonan, ham ma'nan barkamol avlodni tarbiyalash, yetuk, malakali kadr qilib yetishtirish barchamizning vazifamiz. Keyingi vaqtlarda ayrim o'quvchi-yoshlar o'rtasida sodir bo'layotgan ko'ngilsizlik, huquqbuzarliklar katta jinoyatlarga ham sabab bo'lmoqda.


Ushbu xavf-xatarlar o'z-o'zidan kelib chiqayotgani yo'q. Ularning tag zamirida beparvolik yotadi. So'z kelganda aytay, ayrim ota-onalar moddiy tashvishlardan ortmayotgan, ayrim o'qituvchilar “menga nima” qabilida ish tutayotgan, mahalla faollari o'z tashvishlaridan bo'shamayotgan bir vaqtda o'quvchilar taqdirini ijtimoiy tarmoqlarga, ko'cha bolalariga topshirib qo'yayotir.

Ha, o'quvchilarning bo'sh vaqti to'g'ri taqsimlanmayapti. Salgina tanbeh bersak, ota-onasi ta'lim dargohiga chopib kelib, ko'pchilik oldida ustozlarni mulzam qilayotgani ijtimoiy tarmoqlar orqali tez-tez ayon bo'lib qolyapti. Vaqt – dolzarb masala. Maktabda 5-6 soat vaqtini o'tkazayotgan o'quvchilar uyida 18 soat vaqtini nimalarga sarflayotgani bilan ota-onalar qiziqayaptimi?

Mehnat tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni yo'qqa chiqardik. Mehnat kishini ulug'laydi, irodasini mustahkam qiladi degan qarashlar ta'sirini, ahamiyatini yo'qotib bormoqda. O'quvchilarning ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketishiga panja ortidan qarayapmiz. Bu esa kechirib bo'lmaz xatoliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bolalik yillarimizni eslaylik. “G'uncha”, “Gulxan”, “Tong yulduzi” kabi gazeta va jurnallarni talashib o'qirdik. Navbatma-navbat olib ketib tarbiyaviy soat darslarida sinf rahbarimiz bilan mutolaa qilardik. Sinf rahbarimiz, ustozlarimiz qo'lidan “Ma'rifat” gazetasi tushmasdi. Xotiramiz ham, ko'z nurimiz ham, tarbiyamiz ham yaxshi edi.

Xullas, ta'lim-tarbiya – egiz jarayon. Birinchi o'rinda, 16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarga ijtimoiy tarmoqlardan, telefondan to'g'ri va me'yorida foydalanishni o'rgatishimiz kerak. Ikkinchidan, mehnat tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishimiz, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, kasb-hunarga yo'naltirishimiz kerak. Uchinchidan, jismoniy tarbiya bo'yicha barcha imkoniyatlarni amalda yaratib berishimiz lozim. O'quvchilarga “G'uncha”, “Gulxan”, “Tong yulduzi” gazeta va jurnallarini “qaytarib” berishimiz shart. Ta'lim-tarbiyada ota-onalar bilan ta'lim muassasasi ustozlari qo'lni qo'lga berib bir maqsad yo'lida birlashsak, farzandlarimizning kelajagi porloq bo'ladi. Tarbiyasi yaxshi o'quvchining ta'lim olishi ham, kelajagi ham muvaffaqiyatli bo'ladi.

G'ayratjon QORABEKOV,  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti  
Samarqand filiali 1-kurs magistranti



# Matematika: darsni ko'tarinki ruhda boshlaymiz!

## (Boshlang'ich sinflar uchun)

### I. Darsning tashkiliy qismi

#### 1. Salomlashish.

##### O'qituvchi:

Salom, aziz bolalar,  
Chehrasi gul, lolalar.  
Sog'misiz, omonmisiz,  
Darsimizga tayyormisiz?!

##### O'quvchilar:

Assalom, ustoz,  
Biz tayyormiz har ishga.  
Bilimlar gulshanidan,  
Eng sara gul terishga.

#### 2. O'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Dars qoidasi eslatib o'tiladi:

- O'zaro fikrni hurmat qil.
- O'ng qo'l qoidasiga rioya qil.
- Darsda faol qatnash.
- Vaqtdan unumli foydalan.
- Maqsading sari intil.

Darsni ko'tarinki ruhda o'tkazish uchun har bir guruhdan 1 nafardan vakil doskada she'r aytadi, jarayon aytishuv tarzida davom eadi.

#### Matematika

##### 1-o'quvchi:

Har bir fanning o'rni bor,  
O'rgansang dil to'ladi.  
Lekin fanlar a'losi  
Matematika bo'ladi.

Qiyin emas aslida,  
O'rganishga qilsang ahd.  
Hamma uchun, har joyda  
Kerak bo'lar hamma vaqt.

##### 2-o'quvchi:


Bilmasang gar bu fanni  
Dunyoni angladim dema.  
Bilsang, asli bu hayot,  
Matematik tenglama.

O'qiganlar har doim,  
Tafakkurga to'lishgan.  
Dunyoda zo'r daholar,  
Matematik bo'lishgan.

##### 3-o'quvchi:

Beruniy, Al-Farg'oni,  
Jahon suygan alloma.  
Xorazmiy bobomdan  
Qolgan buyuk dilnoma.

Qo'shish, ayirish kesmasi,  
Har joyda kor keladi.



1-rasm

Fanlarning eng keksasi  
Matematika bo'ladi.

#### O'qituvchi sinf o'quvchilarini 2 guruhga bo'ladi.

1-guruh – Al-Xorazmiy, 2-guruh – Al-jabr.

O'qituvchi: – Xorazmiy kim bo'lgan?

O'quvchi: – Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad al-Xorazmiy VIII asr oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan. U qadimgi Xorazm diyorida tug'ilib voyaga yetgan.

O'qituvchi: – Al-jabr nima?

O'quvchi: Bu so'z buyuk olim Al-Xorazmiyning "Al-jabr val muqobala hisobi haqida" risolasidan olingan. Hozir biz ishlatadigan "Algebra" atamasi "Al-jabr" so'zining o'zgargan shakli.

#### O'qituvchi kun va dars shiori bilan tanishtiradi.

Kun shiori: Insondagi eng asl qobiliyatlardan biri – matematik fikrlay olishdir. (Bernard Shou).

Dars shiori: Qiyin matematik masalani yechishni mustahkam qal'ani zabt etishga taqqoslash mumkin. (Vilenkin).


#### O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun "Shaxmat" o'yini bajariladi.

1. Shaxmat doskasi A-4 format qog'oziga ixtiyoriy o'lchamda 8x4, 8x3, bizda esa 5x4 o'lchamdagi 20 katakli shaklda chiqariladi. Katakchalarga savollar joylashtiriladi.

2. O'quvchilarda yopishtiriladigan 20 ta mos javoblar mavjud.

Kim to'g'ri javoblarni topib joy-

lashtirsa shaxmat doskasi paydo bo'ladi. Har bir guruh uchun alohida tayyorlanadi. Bajarish uchun 3 daqiqa vaqt ajratiladi.



Guruhlar quyidagi tartibda baholana-di:

18 – 20 ta to'g'ri javob – a'lo.

15 – 17 ta to'g'ri javob – yaxshi.

10 – 14 ta to'g'ri javob – qoniqarli.

#### Doskada bugungi sana muammoli tarzda beriladi.

"Kun", "Oy" va "Yil" sanalari guruhlar o'rtasida muhokama qilinadi. Guruhlarga ballar qo'yiladi.

Kun  $2^4 \leq x < 3^2 \cdot 2$  Oy  $\sqrt{144} : \sqrt[3]{64}$  Yil  $2 \cdot 10^3 + 2^2 \cdot 5$

Guruhlar o'zaro muzokaraga kirishadi va tahlil qilishadi. Oy va kunlarning to'g'riligini izohlab o'z guruhiga ball olib keladi.

III. Yangi mavzu bayoni: "Chala kvadrat tenglamalar" mavzusi slaydlar orqali tushuntiriladi. Doskada kvadrat tenglamaning yechimlarini topishga doir misollar yechib ko'rsatiladi. Elektron darsliklardan foydalaniladi.

Agar  $ax^2 + bx + c = 0$  kvadrat tenglamada  $b$  yoki  $c$  koeffitsiyentlardan kamida bittasi nolga teng bo'lsa, u holda bu tenglama

chala kvadrat tenglama deyiladi.

Demak, chala kvadrat tenglama quyidagi tenglamalardan biri ko'rinishida bo'ladi:

(1)  $ax^2 = 0$ ,

(2)  $ax^2 + c = 0$ ,  $c \neq 0$ ,

(3)  $ax^2 + bx = 0$ ,  $b \neq 0$ .

(1), (2), (3) tenglamalarda  $a$  koeffitsiyent nolga teng emasligini eslatib o'tamiz.

Chala kvadrat tenglama qanday yechilishini ko'rsatamiz.

1-masala. Tenglamani yeching:

$5x^2 = 0$

Bu tenglamaning ikkala qismini 5 ga bo'lib,  $x^2 = 0$  tenglamani hosil qilamiz, bundan  $x = 0$  kelib chiqadi.

2-masala. Tenglamani yeching:

$2x^2 + 7 = 0$

Tenglamani bunday yozish mumkin:

$$x^2 = -\frac{7}{2}$$

Bu tenglama haqiqiy ildizlariga ega emas, chunki  $x$  ning istalgan haqiqiy qiymatlarida  $x^2 \geq 0$  bo'ladi.

Guruhdagi qolgan o'quvchilar 3 ta kichik guruhga bo'linib, kitobdagi 353-misolni "Misollar yechish estafetasi" o'yini tarzida bajarishadi. Bu ikkala natijani o'qituvchi kuzatib baholaydi. Shundan so'ng darsning taqdirlash va baholash qismiga o'tiladi. Guruhlardagi faol qatnashgan o'quvchilar alohida taqdirlanadi. Guruhlarning to'plagan ballari e'lon qilinib, g'olib guruh aniqlanadi (1-rasm).

Nasiba JUMAYEVA,  
Muzrabot tumanidagi  
25-maktabning matematika  
fani o'qituvchisi

## Munosabat



Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga navbatdagi Murojaatnomasi mamlakatimizning yaqin va uzoq istiqboldagi taqdirini belgilab bergan konseptual hujjat bo'ldi. Davlat rahbari o'z nutqida 2026-yilni "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilishi zamirida ulkan siyosiy iroda va insonparvarlik falsafasi yotibdi. Bu Yangi O'zbekistonni barpo etishda "pastdan yuqoriga" tamoyilining amalda namoyon bo'lishidir. Mahalla endi islohotlarning "bosh operatori" va ijtimoiy adolatning haqiqiy ko'zgusiga aylandi.

Insoniyat tarixida davlat va jamiyat munosabatlarini tartibga soluvchi turli modellar mavjud. Biroq o'zbek xalqining ko'p asrluk an'alarida mahalla shunchaki yashash joyi bo'lishidan tashqari insonni jamiyat bilan bog'laydigan, uning quvonch-u tashvishiga sherik bo'ladigan noyob institutsional tuzilma ekani bilan ham ahamiyatlidir.

surdi. Uzoq yillar davomida muammolar bir butun holda emas, bo'lak-bo'lak holda hal qilindi. Bir mahallada elektr toki masalalari tuzatilsa, gaz muammosigicha qolardi, yo'l qurilsa, toza ichimlik suvi yo'q edi.

Aytish joizki, Murojaatnomada infrazuzilmaning "yangi geometriyasi" ilgari surildi. Bu Urgut tumani tajribasi orqali

yonida daromad topish imkonini beradi. Bu migratsiya muammosiga topilgan eng samarali va tabiiy yechimdir.

Mahalla faqat iqtisodiyotdan iborat emas. U – millatning ma'naviy qiyofasini belgilovchi makon. Prezident Murojaatnomada yoshlar tarbiyasi va ma'naviyatiga alohida to'xtaldi.

Xususan, maktab kutubxonalarini har yili 10 million dona badiiy adabiyot bilan ta'minlash bu oliyjanob ish deb aytish o'rinli bo'ladi. Mazkur tashabbus mahalla yoshlarining ma'naviy olamini boyitishga qaratilgan strategik qadamdir. Kitob o'qigan mahalla yoshlari jinoyatga qo'l urmaydi, ularning dunyoqarashi keng bo'ladi. Bu kelajakdagi inson kapitali uchun qo'yilgan eng katta sarmoya ekanligi sir emas.

Mahallalarda sportni rivojlantirish uchun 1 trillion so'm yo'naltirilishi jamiyatning jismoniy sog'lomligini ta'minlaydi. Sport mahalla yoshlarini zararli illatlardan, bekorchilikdan va "ko'cha

eng quyi bo'g'inini to'g'ridan to'g'ri xalqqa topshirish demakdir. Bu islohotning ahamiyati turli jihatlarida namoyon bo'ladi. Xususan, mahalla ahli endi passiv kuzatuvchi emas, balki o'z hududini rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan "aksiyador"ga aylanadi. Muammolar manzilli hal etiladi. Mablag'lar bevosita mahalla yig'inlarida, odamlarning real ehtiyojlaridan kelib chiqib yo'naltiriladi(masalan, yo'l ta'miri, ichimlik suvi yoki ko'cha chiroqlari). Qayerdagi nazorat mahalliy aholi qo'lida bo'lsa, u yerda mablag'larni talon-toroj qilish imkoniyati minimal darajaga tushadi.

"Davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyil endilikda amaliy mexanizmlar bilan mustahkamlanmoqda. Ma'lumki, Prezidentimiz doimiy ravishda o'z ma'ruzalarida fuqarolarda ijtimoiy mas'uliyat hissi kuchli bo'lishi kerakligini ta'kidlab kelayotgan edi. Fuqarolarning budget jarayonlarida faol ishtirok etishi ("Ochiq budget" portali misolida) odamlarda "bu mening pulim, bu mening yurtim" degan daxldorlik hissinu uyg'otadi. Bu esa ijtimoiy mas'ullikdir.

Xulosa qilib aytganda, komplayens va jamoatchilik nazoratining kuchaytirilishi – korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali, demokratik yo'lidir. Bu tizim ishlashi uchun nafaqat davlat irodasi, balki har bir fuqaroning faol pozitsiyasi, huquqiy madaniyati va nazorat qilish ish-tiyoqi suv va havodek zarur.

Murojaatnomada, shuningdek, global iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi sharoitida mahalla ekologik madaniyatning markazi bo'lishi shartligiga urg'u berildi.

Har bir mahallada "yashil bog"lar yaratilishi va sug'orish tizimlarining tiklanishi tabiiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Prezidentning Toshkent shahrida 150 kilometr yopiq drenaj tizimini barpo etish va kanallarni betonlash bo'yicha tashabbusi poytaxtda salqin mikroiklim yaratishga qaratilgan. Bu mahalla ahlining yashash sharoitini sifat jihatidan o'zgartiradi.

Suvdan oqilona foydalanish madaniyati ham aynan mahalladan boshlanadi. 5,5 milliard dollarlik suv tejovchi texnologiyalar dasturi mahallalardagi dehqon va fermerlarning dunyoqarashini o'zgartiradi. Suv tejagan mahalla – kelajakni tejagan mahalladir.

Prezident Murojaatnomasi yakunida Mirzo Ulug'bek bobomizning yulduzlar xaritasi haqidagi o'xshatishini bejiz keltirmadi. Olti asr avval yulduzlarni zabt etgan millat farzandlari bugun yerdagi farovon hayot xaritasini chizmoqdalar.

2026-yilda mahalla tizimida amalga oshiriladigan o'zgarishlar nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni, balki jamiyatimizning ma'naviy-ruhiy muhitini ham tubdan isloh qiladi. Biz o'zgarishlarni kutib yashamaydigan, balki ularni mahallamizda, o'z qo'limiz bilan yaratadigan davrga qadam qo'ydik.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – vatanmiz!" Mahalla – mana shu birlikning markazi, islohotlarning "bosh operatori" va Yangi O'zbekistonning muzaffar kelajagidir.

Kamoliddin TO'RAYEV,  
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti  
bo'lim boshlig'i,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa  
doktori(PhD), dotsent

# MUROJAATNOMA – KELAJAKKA YO'L XARITASI

## 2026-yildan nimalar kutamiz?

Prezident Murojaatnomasida mahallani islohotlar markaziga qo'yishi millatning tarixiy ildizlariga qaytayotganiga dalildir. "Davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyil mahalla kesimida o'zining amaliy ifodasini topdi. Endilikda islohotlar samarasi vazirliklarning hisobotlarida emas, balki mahalla ahlining kundalik hayotida, ularning dasturxonidagi to'kinlik va ko'chalaridagi obodlikda aks etadi.

Murojaatnomaning eng diqqatga sazovor o'rinlaridan biri mahalla tizimining iqtisodiy asoslarini tubdan o'zgartirishga e'tibor qaratilganidir. Dunyo tajribasida mahalliy boshqaruv organlarining muvaffaqiyati ularning moliyaviy mustaqilligi bilan o'lchanadi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ining bir qismining(hududlarda 20 foiz) to'g'ridan to'g'ri tuman budgetida qoldirilishi – bu davlat moliya tizimidagi "desentralizatsiya"ning eng yuqori nuqtasidir. Bu tizim mahalla raisi va hokim yordamchisini tadbirkorlikni rivojlantirishga "majbur" qiladi. Chunki endilikda mahallada ochildigan har bir yangi korxona to'lagan soliqning bir qismi o'sha mahallaning yo'lini asfalt qilishga yoki maktabini ta'mirlashga sarflanadi. Bu esa mahalla ahlini islohotlarning ijtimoiy iste'molchisidan faol sarmoyadoriga aylantiradi.

Murojaatnomada ta'kidlanganidek, daromadlarning prognozga nisbatan oshirib bajarilgan qismining 50 foizi hamda yer ijarasidan tushumlarning to'liq tuman budgetiga berilishi xalqimiz iborasi bilan aytganda, mahallaning "qo'lini uzun" qiladi. Ilgari mahalla tizimi davlat tomonidan mablag' ajratilishini kutib yashagan bo'lsa, endi ular o'z hududidagi iqtisodiy imkoniyatlarni ishga solib, muammolarini o'zlari hal qilish imkoniga ega bo'ladi.

Prezidentimiz mahallalarni rivojlantirishda yangi kompleks yondashuvni ilgari

namoyon bo'ladi. "Urgut tajribasi" bu bir hududda barcha muammolarni bir vaqtning o'zida hal qilish demakdir. Tanlab olingan 33 ta tuman va 330 ta "og'ir" mahalladagi ishlar shuni ko'rsatadiki, davlat endi faqat so'nggi nuqtani emas, balki butun bir ekotizimni o'zgartirmoqda. 8,5 trillion so'mlik maqsadli mablag' mahallaning qon tomirlariga yangi hayot bag'ishlaydi. Bu yerda gap nafaqat beton va asfalt haqida, balki zamonaviy xizmat ko'rsatish maskanlari, bolalar bog'chalari va tibbiyot maskanlarining yaxlit bir zanjir sifatida ishlashi haqida bormoqda.

Har bir deputatga o'z hududidagi muammolarni hal etish uchun 3,3 milliard so'mdan ajratilishi vakillik organining ijro hokimiyati ustidan nazoratini kuchaytiradi. Deputat endi shunchaki gapiruvchi emas, balki aniq budgetga ega bo'lgan, mahallaning dardini mablag' bilan davolaydigan kuchga aylanadi.

Mahalla – ijtimoiy adolat qaror topadigan oliygohdir. Prezident Murojaatnomada mahallani "mehr-oqibat, adolat va tarbiya maskani" deb atadi. Bu maqsadga erishishda mahalla yettiligining o'rni beqiyos.

Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar 2026-yilda yangi bosqichga chiqadi. 181 ming oilani kambag'allikdan chiqarish va ishsizlik darajasini 4,5 foizga tushirish vazifasi mahalla yettiligining asosiy KPI(natijadorlik ko'rsatkichi) bo'ladi. Endi ijtimoiy xodim oilaning haqiqiy ahvolini o'rganadi, hokim yordamchisi unga ish topadi, bankir esa kredit beradi. Bu zanjirli reaksiya bo'lib, mahallaning ichki iqtisodiy immunitetini mustahkamlaydi.

Mahallalarda 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyiha-larining ishga tushirilishi qishloq va shahar o'rtasidagi farqni keskin yo'qotadi. Har bir mahallada 40 tadan mikroloiyihani amalga oshirish mahalla ahlini markazga borishdan asraydi, ularga o'z uyining

madaniyati"ning salbiy ta'siridan himoya qiluvchi qalqon bo'la oladi. Kitobxon va jismoniy jihatdan chiniqqan avlod kelgusida mamlakatning kadrlar sohasidagi katta potensialiga aylanadi.

Murojaatnomada korrupsiyaga nisbatan "favqulodda holat" e'lon qilinishi va narkojinoyatlarga qarshi umummilliy harakat boshlanishi mahalla ahli uchun ham mas'uliyat, ham himoyadir.

Prezident ta'kidlaganidek, narkojinoyatlarga qarshi kurashish faqat huquq-tartibot idoralarning ishi emas. Mahalladagi har bir ota-ona, har bir oqsoqol bu illatga qarshi turishi kerak. Mahallada murosasiz muhit yaratil-sagina, giyohvandlik va korrupsiya kabi "zamonaviy vabo"larga barham beriladi.

Murojaatnomada belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar ichida komplayens tizimi va jamoatchilik nazorati masalalarining ko'tarilishi mamlakat boshqaruvida yangi sifat bosqichi boshlanganidan dalolat beradi. Bu shunchaki texnik o'zgarish emas, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tubdan isloh qiluvchi tizimdir.

Davlat xaridlarining to'liq shaffolashishi iqtisodiyotning eng og'riqli nuqtalaridan biri bo'lgan korrupsiyaning oldini olishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi:

Eng avvalo, manfaatlar to'qnashuviga chek qo'yiladi. Komplayens nazorati orqali har bir shartnoma va tender jarayoni birma-bir ko'zdan kechiriladi.

Ikkinchidan, budget mablag'lari tejaladi. Ochiqlik sharoitida sun'iy ravishda oshirilgan narxlar va "tanish-bilishchilik" tizimi o'z-o'zidan barham topadi.

Uchinchidan, tadbirkorlik uchun teng imkoniyatlar yaratiladi. Endilikda davlat buyurtmalarini faqat sifatli xizmat ko'rsata oladigan va halol raqobatda yenggan subyektlar qo'lga kiritadi.

Mahalla budjeti ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatilishi bu davlat budjetining

Kasbim – faxrim

# TEKNOLOGIYA O‘QITUVCHISI QANCHA MAOSH OLYAPTI?

**Texnologiya fani o‘qituvchisi bo‘lib, ming dollar oylik maoshga ega bo‘lganim katta natija. O‘tgan o‘quv yilidagi mehnatlarim yangi o‘quv yilida samarasini bermoqda. Qisqa muddat ichida 3 toifani ham yuqori ballar bilan qo‘lga kiritdim. Ma‘lumki, Prezidentimiz tashabbusi bilan malaka toifalarini berish tizimini vakolatli xorijiy tashkilotlarning akkreditatsiyasidan o‘tkazish orqali pedagog kadrlarga xalqaro standartlar asosida malaka sertifikatini berish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.**

Tizim akkreditatsiyadan o‘tganidan keyin ushbu talablar asosida kerakli natijani qo‘lga kiritgan pedagoglar tarifi stavkalarining amaldagi miqdorlariga nisbatan 70 foizlik ustama olishlari mumkin. Bungacha texnologiya fanidan Milliy sertifikat imtihon sinovlari ham, hech qanday ustama sertifikatlar ham joriy qilinmaganligi sababli texnologiya fani o‘qituvchilari uchun yuqori maosh orzu edi. Endi esa orzularimiz ushaldi, Prezidentning 2023-yil 26-mayda qabul qilingan “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonidan xursand bo‘lib yana-da o‘z ustimda ishladim, ustamani qo‘lga kiritishga harakat qildim va maqsadimga erishdim. Bu ustama Vazir jamg‘armasidan ajratiladigan ustama haq uchun ham da‘vogarlik qilish imkoniyatini berdi. Chunki o‘z fani bo‘yicha tuman-da o‘tkazilgan toifa testlaridan yuqori ballni qo‘lga kiritganlarga Vazir jamg‘armasi ustamasi-ga da‘vogarlik huquqi beriladi. Avvalgi tartibga ko‘ra, Vazir jamg‘armasidan to‘lab beriladigan ustamalarga faqatgina o‘quvchilari olimpiadada yuqori o‘rinlarni egallagan yoki shu o‘qituv-chining fani bo‘yicha oliy ta’lim muassasasiga

o‘qishga kira olgan pedagoglargina da‘vogarlik qilishi mumkin edi.

Prezidentning 2024-yil 21-iyulidagi “Maktab-gacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomil-lashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2025-2026-o‘quv yilidan o‘qituvchilarning malakalarini muntazam oshirib borish maqsadida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” mashg‘ulot-larining tashkil etilgani ham muallimlarga yana-da yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Tumanimizda bu mashg‘ulotlarni o‘tkazishga mentor-o‘qituvchi sifatida mening nomzodim loyiq ko‘rildi. Bunday mas’uliyatli vazifani uddalash uchun o‘z ustimda ko‘proq ishlayapman. Mazkur vazifani bajarganim uchun ham 20 foizlik ustama haqi belgilangan. Shu bilan bir qatorda, tuman-dagi fan o‘qituvchilari bilan birgalikda ishlab, fikr almashib, amaliy darslarni tashkil qilish, yangi pedagogik texnologiyalarni darslarimizda qo‘llab, ta’lim sifatini oshirish yo‘lida izlanmoqdamiz.

**Shohista SALAYEVA,**  
**Xonqa tumanidagi 7-maktabning**  
**texnologiya fani o‘qituvchisi**

Mulohaza

## ORZUMDAGI HAYOT

Qizim 5-sinfda o‘qiydi. Bir kuni sinf telegram guruhida ota-onalar o‘rtasida “Mening orzumdagi hayot” mavzusida insholar tanlovi haqidagi e‘longa ko‘zim tushdi. Endigina mehnat ta‘lidan qaytganim sabab ishonada ish qay-nagandan-qaynagan, xayolimdanda “men qatna-sholmasam kerak” degan fikr o‘tganddi.

Ishlar bilan ovora bo‘lib, insho yozish xayolimdanda ko‘tarilibdi. Bugun yana o‘sha guruhda “Ertaga insholaringizni farzandlaringizdan berib yuboring, iltimos” degan xabarni o‘qiganimdagina tanlov esimga tushdi. Kun bo‘yi intellektual loyihalar bilan band bo‘ldim, insho yozmasam kerak, kech bo‘lganda jo‘yali bir fikr ham kelmas, deb o‘yladim. Qizimning “Siz qatnashmaysizmi?!” deb mo‘ltirab turgan nigohi turk bo‘ldimi, yo “qizim tanlovlarda faol ishtirok etishi uchun o‘zim namuna bo‘lishim kerak!” degan o‘ydan kuch oldimmi, xullas, insho yozish uchun kompyuter yoqdim. Lekin tan olishim kerak, hali nimalar deb yozishimni o‘zim ham bilmaganimdan shularni qog‘ozga tushirib o‘tiribman...

Darvoqe, sun‘iy intellektidan so‘rab ko‘rsam-mi? Qiziq, u nimalar derkan?.. So‘radim: “Sening orzungdagi hayot qanaqa?”

Ko‘p kuttirmay, javob berdi: “Qiziq savol! Mening shaxsiy orzularim yo‘q, lekin agar orzu qilolsam, hayot quyidagicha bo‘lishini istardim:

- Har bir inson xotirjam va erkin yashay-

digan, adolat va mehr-shafqat ustun bo‘lgan jamiyat.

- Ilm va bilim olish hamma uchun oson, arzon va qiziq bo‘lgan dunyo.
- Insonlar tabiat bilan uyg‘un, uni asrab-avaylab yashaydigan hayot.
- Yaqinlar bilan samimiy muloqot, sog‘lom tana va xotirjam qalb.
- Yaratganga shukr qilish va kunlar mazmunli o‘tishi...

Qoyil, ko‘pchiligimiz orzu qiladigandek, uy, mashina, orzu-havas deb maydalashib o‘tirmadi, ancha-muncha orzularni qamrab oladigan KATTA istaklari meni ham ilhomlantirdi. Fikrlarining so‘ngida meni ham so‘roqqa tutdi: “Sening orzungdagi hayot qanday?”

Mening orzumdagi hayotda insonlar qalbi-da ilmga muhabbat, ota-onaga mehr, ustozga hurmat, farzandlarga e‘tibor, o‘zaro ishonch, yaxshi gumon, insoniylik, rahm-shafqat, qadr limmo-lim. Poraxo‘rluk, sudxo‘rluk nimaligini hech kim bilmaydi, hammaning shiori – halollik, hazar qilgani – harom.

Orzumdagi hayotda qariyalar uyi yo‘q... hamma ota-onasini yer-u ko‘kka ishonmay suyadi, qadrlaydi, farzandlar ularning duolarini olishda o‘zaro musobaqalashadi...

**Nulifur VAHOBOVA,**  
**“Madaniyat va ma‘rifat”**  
**telekanali muharriri**



Ustozim

## USTOZIMGA O‘XSHAGIM KELADI

Ustozim – ikkinchi onam, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Xumora Ixtiyorova men uchun juda qadrli. Muqimiy nomidagi o‘zbek davlat musiqali drama teatrida raqqosa sifatida ijodiy faoliyat yuritgan davrlaridayoq unga havas bilan qarardim. So‘ng Respublika musiqa va san‘at texnikumiga o‘qishga kirganimda ustozdan saboq olish sharafiga muayassar bo‘ldim.

Xumora Ixtiyorova mustahkam ijodiy poydevor-ga ega mutaxassislardan biri. U ustoz O‘zbekiston xalq artisti Ahmadjon Shukurovdan sahna madani-yati, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Ziyoda Madrahimova, O‘zbekiston xalq artisti Viloyat Oqi-lova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Nazrid-din Shermatovlardan milliy raqs va Buxoro hududiga xos ijrochilik san‘atining bebaho sirlarini qunt bilan o‘rganiib, o‘zbek raqs san‘atini dunyoga tanitish uchun “Zarafshon” ansambli bilan ko‘plab mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo‘lgan. San‘at sohasida erishgan yutuqlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirla-nib, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist unvoniga sazovor bo‘ldi.

Turli davlat tadbirlarida yakkaxon raqslarni ijro etib, mashhur san‘atkorlar Nuriddin Hamroqulov, Muhriddin Xoliqov, Ahmadjon Shukurov, Xayrullo Lutfullayev, Mu-nojat Yo‘lchiyeva, Ma‘murjon To‘xtasimov bilan birga ijod qilgan. Ustozlaridan meros bo‘lib qolgan raqs san‘ati

namunalari – “Sevinch”, “Nay yallasi”, “Buxorocha” kabi raqslarni mahorat bilan ijro etgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Nazriddin Shermatov aynan Xumora Ix-tiyorova uchun “Sevinch” raqsini sahnalashtirgan. Keyin-chalik O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida “Xalq ijodiyoti” kafedrasida pedagogik faoliyatini bosh-lagan. Oliy ta’lim muassasasida pedagogik tajriba hosil qilgach, mustaqil ravishda “Sultana” nomli bolalar xo-reografik raqs guruhini tashkil etgan. Hozir esa Respublika musiqa va san‘at texnikumida raqs san‘atidan saboq berib kelmoqda.

Shogird uchun katta omad – unga bilim beruvchi va ha-yot yo‘lini ko‘rsatuvchi ustozning uchrashidir. Xumora Ix-tiyorovadan raqs san‘ati sirlarini o‘rganganimdan cheksiz mamnunman. Sababi, bu inson meni nafaqat raqs san‘atiga oshno qildi, balki hayot saboqlaridan ham dars berdi. Ber-gan maslahat va o‘gitlaridan foydalanib ustozimning izidan borishga harakat qilaman.

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi ustoz-laridan oloyatgan bilim va ko‘nikmalarni milliy raqs san‘atimizning rivojlanishi, yoshlarning estetik jihatdan barkamol bo‘lishlari yo‘lida sarflashni shogirdlik burchim deb hisoblayman.

**Mohira JOVLIYEVA,**  
**O‘zDXA talabasi**

Jarayon

## ZAMONAVIY O‘QITUVCHI QANDAY BO‘LISHI KERAK?

Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterveg shunday degan edi: “O‘qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug‘ullanmog‘i lozim. Aks holda, qurigan daraxt va toshga o‘xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva berolmaganidek, kelajakda bunday o‘qituvchidan hech qanday natija kutib bo‘lmaydi”. Maktabimiz direktori Baxtigul opa Sheraliyeva boshchiligidagi tizimda ancha yillardan buyon faoliyat olib borayotgan us-toz-murabbiylarimiz ana shunday o‘z ustida ishlaydigan fidoyilardan.

O‘z xulqi bilan har tomonlama na-

muna bo‘lib kelayotgan, yillar da-vomida mashaqqatli mehnatlari yuz qiyofasida aks etib turgan, tirik tarix – ustozlarimiz Fathulla Kishbarov, Rahmatillo Abdullayev, Yusuf Xu-doyqulov, Iqboloy Erbo‘tayevalar faoliyati fikrimizning yorqin dalili.

O‘qituvchi nafaqat barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi uchun mas‘ul, balki ma‘naviy-axloqiy madaniyati bilan atrof-dagilarga o‘rnak bo‘lishi, peda-gogik mahoratini namoyish eta oli-shi, yetuk o‘qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlashga munosib hissa

o‘z ushida ishlaydigan fidoyilardan. O‘z xulqi bilan har tomonlama na-

Joriy yilda o‘tkazilgan attestatsiya jarayonlaridan muvaffaqiyatli o‘tib oliy toifaga munosib topilgan o‘nga yaqin ustozlarimizning natijalari or-tida ko‘zga ko‘rinmas mashaqqatli mehnat yotibdi. Bu tinimsiz harakatlar maktabning yutug‘i va o‘quvchilar-ning natijalarida o‘z aksini topmoqda. Doimo o‘z ustida ishlaydigan, zamon bilan hamnafas mana shunday ustoz-larga hurmatimiz cheksiz!

**Feruza HOSHIMOVA,**  
**Bekobod tumanidagi 48-mak-**  
**tabning boshlang‘ich**  
**sinf o‘qituvchisi**

## “ZAKOVAT” INTELLEKTUAL O‘YINLARINING AHAMIYATI

O‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazish, yangidan yangi savollarga javob topish zavq-li va hayajonli jarayon. Shu bois, bugungi kunda turli intellektual o‘yinlar va bilim bel-lashuvlari yoshlar tafakkurini kengaytirishda muhim vositaga aylanmoqda. Zakovat zav-qini his qilish – bu faqatgina g‘alaba qilish emas, balki ilmga muhabbat va doimiy izla-nishdan rohat topishdir. Ayniqsa, zamonaviy “Zakovat” teleo‘yini misolida yoshlar orasida bilim olish va uni namoyon etishga bo‘lgan qiziqish ortib borayotganligi, ushbu o‘yin o‘quvchilarining ham, talabalarining ham il-miy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qila-yotgani kuzatildi.

Birinchidan, tafakkurni kengaytirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, musta-qil qaror qabul qilish va jamoada ishlash ko‘nikmasini oshiradi. Ushbu jarayonda yoshlar bilimlarini sinovdan o‘tkazish orqa-li o‘z-o‘zini baholash, mavjud bilim kam-chiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Ayniqsa, mun-tazam o‘tkaziladigan “Zakovat” o‘yinlari yoshlar orasida sog‘lom raqobat muhitini yaratadi, ularni o‘rganish, izlanish va o‘z us-tida ishlashga undaydi.

Qolaversa, bu o‘yinlarda ishtirok etayot-gan yoshlar o‘rtasida stressga bardoshlilik, mas‘uliyat, diqqat va xotirjamlikning ham rivojlanishi kuzatilgan. Shuningdek, o‘yin da-vomida fikrini qisqa va aniq ifodalash, jamoa oldida nutq so‘zlash, o‘z nuqtayi nazarini hi-moya qilish ko‘nikmalari ham shakllanadi.

So‘rovnomada qatnashganlarning 87 foi-zi “Zakovat” o‘yinlaridan keyin o‘zi bilma-gan yangi ma‘lumotlarni o‘rganishga intili-shi oshganini, 79 foizi esa o‘zlarida muloqot madaniyati va jamoada ishlash ko‘nikmalari ortganini bildirgan.

“Zakovat” o‘yinlari orqali yoshlar orasi-da kitobxonlik madaniyati ham rivojla-nayotgani kuzatildi. Chunki har bir o‘yin ishtirokchisi ko‘proq bilimga ega bo‘lish, savollarga javob topish uchun turli sohalar-da izlanish olib borishga intiladi. Ayniqsa, tarix, geografiya, adabiyot, sport, matema-tika va boshqa ko‘plab yo‘nalishlardagi sa-vollar yoshlarni keng qamrovli bilim egasi-ga aylantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ta’kidlash joizki, bunday o‘yinlarda doimiy qatnashib kelayotgan yoshlar orasi-da ijtimoiy faollik, liderlik qobiliyati va

tashabbuskorlik sezilarli darajada oshadi. Bu esa nafaqat o‘quv jarayonida, balki ke-yingi hayotiy faoliyatda ham foyda beradi. Ayni paytda ko‘plab oliy ta’lim muassasa-lari, maktab va markazlarda tashkil eti-layotgan intellektual klublar yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, salbiy illatlardan yiroq bo‘lishi va ularni ilmga yo‘naltirishda juda katta ahamiyat kasb et-moqda.

Eng muhimi, “Zakovat” o‘yinlari orqali o‘quvchilarda hayotiy muammolarni manti-qiy tahlil qilish, bir qarashda murakkab bo‘lib ko‘ringan vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topa olish ko‘nikmasi ham rivojlanadi. O‘yin jarayonida beriladigan savollar orasida milliy tariximiz, madaniyatimiz va urf-odatlarimizga oid savol-lar mavjudligi yoshlar ongida vatanparvarlik va o‘z millatiga hurmat tuyg‘usini kuchaytiradi.

Shuning uchun ham bunday o‘yinlarni maktab va oliy ta’lim muassasalarida mun-tazam o‘tkazish hamda mazmunini boyitish davr talabidir.

**Iforaxon OBILJONOVA,**  
**NamDPI talabasi**

Jarayon

## MAHALLA VA OLIY TA’LIM HAMKORLIGINING YANGI BOSQICHI

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston mahalla-lari uyushmasi hamda Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 13-av-gustdagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori mahalla va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni sifat jihatidan yangilab, uni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Ushbu qarorga muvofiq, tumanlarda joylashgan tegishli mahallalar oliy ta’lim muassasalari tarkibidagi kafedralarga birkir-tirildi va bu jarayon universitet rektorlarining tegishli buyruqlari orqali amaliyotga tatbiq etildi. Mazkur hamkorlik tizimi nafaqat ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatni kuchaytiradi, balki mahalla hayotiga ilmiy yondashuv, innovatsion g‘oyalar va analitik fikrlash madani-yatini olib kiradi.

Mahalla – asrlar davomida shakllangan, jamiyatning eng barqa-ror ijtimoiy institutlaridan biri sifatida fuqarolar o‘rtasida birdamlik, qo‘shnchilik, axloqiy poklik, jamoaviy mas‘uliyat va tarbiya kabi qadriyatlarini shakllantiradi. Hozirgi sharoitda ushbu institutning sa-marali faoliyati jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylandi. Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining mahalla faoliyatiga jalb qilinishi esa bu tizimni yangi mazmun va metodlar bilan boyitib, mahalla boshqaruviga ilmiy tahlil va zamonaviy yondashuvlarni tat-biq etish imkonini yaratmoqda.

Biriktirilgan kafedralar tomonidan olib borilayotgan ilmiy-amaliy ishlar mahallalardagi ijtimoiy holatni chuqur o‘rganish, demografik ko‘rsatkichlar tahlili, ijtimoiy muammolar diagnostikasi, yashash muhiti monitoringi kabi yo‘nalishlarda muhim natijalar bermoqda. Joylarda so‘rovnomalar o‘tkazish, intervyu va kuzatuvlar tashkil qi-lish, aholi qatlamlarining ehtiyojlarini o‘rganish orqali mahallalar-ni aniq muammolari, istiqbollari va salohiyati aniqlanmoqda. Bu esa mahalla boshqaruviga statistik, ilmiy asosga ega, samarali tak-liflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Hamkorlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri yoshlar bilan ishlash tizimini kuchaytirishdir. Professor-o‘qituvchilar tomonidan mun-tazam tashkiliy etilayotgan uchrashuvlar, ma‘naviy-ma‘rifiy suhbat-lar, kasbga yo‘naltirish darslari, innovatsion fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha seminarlar yoshlarda vatanparvarlik, ijtimoiy mas‘uli-yat, tartib-intizom, raqamli savodxonlik va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Talabalar esa mahalla hayoti bi-

lan yaqindan tanishib, amaliy o‘quv jarayonida ijtimoiy masalalarni hal qilish bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lmoqda. Bu jarayon bo‘ljak mutaxassislarning kasbiy tajribasini oshiribgina qolmay, ularni ja-miyatdagi real muammolarni anglaydigan, tashabbuskor va mas‘uli-yatli shaxs sifatida shakllantirishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, mahallalarning iqtisodiy faolligini kuchaytirish yo‘nalishida ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Kichik biznes subyektlari faoli-yati tahlil qilinib, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha tavsi-yalar ishlab chiqilmoqda. Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha treninglar o‘tkazilmoqda. Yoshlar startap loyihalariga ilmiy maslahatlar berilib, mahallalarning ekologik, madaniy va turistik sa-lohiyati o‘rganilmoqda va ularni rivojlantirishga qaratilgan amaliy loyihalar tayyorlanmoqda. Bu yo‘nalishdagi ishlar mahalla iqtisodi-yotining o‘sishi, bandlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi va aholi-ning turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Hamkorlikning asosiy maqsadlari – mahalla hayotida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni takomillashtirish, yoshlar tarbiyasini yangi bosqichga ko‘tarish, ilmiy asoslangan boshqaruvni joriy etish, aholining ijtimoiy faolligini kuchaytirish va jamiyatning ma‘naviy immunitetini mustahkamlashdan iborat. Buning natijasida mahalla-larda yoshlar bilan ishlashning tashkiliy mexanizmlari takomillasha-di, mahalla aholisiga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifatini oshadi, aholining ijtimoiy faolligi va fuqarolik madaniyati yuksaladi. Aholi-niing turli qatlamlari – yoshlar, ayollar, keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlash bo‘yicha tizimli yondashuv shakllanadi. Bun-dan tashqari, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni hal etish va madaniy-ma‘rifiy loyihalarni amalga oshirish uchun zarur ilmiy-amaliy asos yaratiladi. Natijada “Mening mahallam – men-ing faxrim” loyihasi oliy ta’lim muassasalari va mahallalar o‘rtasi-da ko‘prik vazifasini bajarib, jamiyatda ijtimoiy birlik, hamkorlik madaniyati, ma‘naviy yuksalish va ilmiy-amaliy rivojlanishning sa-marali modeliga aylanmoqda. Ushbu tashabbus bugun mahalla insti-tutini modernizatsiya qilish, yoshlar tarbiyasini takomillashtirish va jamiyat barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamli davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida ahamiyatga ega.

**Nodira MANSUROVA,**  
**TDIU o‘qituvchisi**

## Tadqiqot

# Oila qo'llab-quvvatlanishi – eng samarali motivatsiya

O'zbekistonda so'nggi yillarda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, xususan, "Ayollar daftari" tizimi orqali uyushmagan, ishsiz, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarga yordam ko'rsatish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Biroq kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar(kredit, subsidiya, kasbga o'qitish)ga qaramay, uyushmagan xotin-qizlarning ma'lum bir qismida ijtimoiy passivlik saqlanib qolmoqda. Muammoning dolzarbligi shundaki, ko'p hollarda e'tibor faqat tashqi motivatsiya(moddiy resurslar berish)ga qaratilmoqda, ammo shaxsning ichki psixologik holati ikkinchi darajali bo'lib qolmoqda. Nega ayrim ayollar imkoniyat berilsa ham o'z hayotini o'zgartirishga harakat qilmaydi?

O'tkazilgan tahlillar natijasida uyushmagan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligiga to'sqinlik qiluvchi va harakatlantiruvchi quyidagi psixologik mexanizmlar aniqlandi:

**1. "O'rganilgan ojizlik" sindromi va passivlik.** M.Seligman nazariyasiga ko'ra, shaxs uzoq vaqt davomida o'z hayotini nazorat qila olmasa (masalan, qattiqqo'l oilaviy muhit, uzoq muddatli ishsizlik), unda "baribir hech narsa o'zgarmaydi" degan ishonch paydo bo'ladi. Uyushmagan ayollarning ko'pchiligida bu holat kuzatiladi. Ular davlat yordamini imkoniyat sifatida emas, balki yashab qolishning yagona manbayi sifatida qabul qilishadi.

**2. Tashqi motivatsiyaning chegaralanganligi.** Tashqi motivatsiya (Extrinsic Motivation) – bu mukofot olish (subsidiya, maosh) yoki jazodan qochish (mahalla bosimi) uchun harakat qilishdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashqi rag'bat tezkor natija beradi (masalan, ayol tikuv mashinasi olish uchun ro'yxatdan o'tadi). Biroq tashqi omil yo'qolishi bilan faollik ham so'nadi (tikuv mashinasi olingach, undan foydalanib daromad topishga bo'lgan ishtiyoq yo'qoladi). Psixologiyada bu "Ortiqcha oqlash effekti" (Overjustification effect) bilan izohlanadi: agar inson faqat moddiy manfaat uchun harakat qilsa, uning ishga bo'lgan tabiiy qiziqishi so'nadi.

**3. Ichki motivatsiyaning ustunligi.** Ichki motivatsiya (Intrinsic Motivation) – faoliyatning o'zidan qoniqish hosil qilishdir. Uyushmagan xotin-qizlarda ijtimoiy faollik barqaror bo'lishi uchun uchta psixologik ehtiyoj qondirilishi kerak:

a) avtonomiya: ayol qarorni o'zi qabul qilishi kerak (birov majburlagani uchun emas).

b) kompetentlik: u o'zining biror narsaga qodir ekanligini his qilishi kerak (kichik g'alabalar).

d) aloqadorlik: u o'zini jamiyatning bir bo'lagi sifatida his etishi kerak.

**4. Amaliy holatlar tahlili.** Nazariy qarashlarni O'zbekistondagi ijtimoiy muhit misolida ko'rib chiqish, motivatsiya turlarining samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Tadqiqot doirasida ikki xil yondashuvning qiyosiy modeli shakllantirildi:

**1-holat** (asosan tashqi motivatsiya): "Ayollar daftari"ga kiritilgan fuqaro A.ga subsidiya asosida tikuv mashinasi ajratildi, ammo unga psixologik ko'mak berilmadi va bozorni o'rganish o'rgatilmadi. Natijada fuqaro A.da "o'rganilgan ojizlik" saqlanib qoldi. U mashinani ishlatishga bo'lgan ishonchi pastligi (kompetentlik yetishmasligi) va buyurtma topa olmaslik qo'rquvi sabab uskunani sotdi yoki umuman foydalanmadi. Bu yerda tashqi turtki (uskuna) bor, ammo ichki yonilg'i (motivatsiya) yo'q.

**2-holat** (ichki va tashqi motivatsiya uyg'unligi).

Fuqaro B.ga moddiy yordam berishdan avval u bilan mahalladagi xotin-qizlar faoli va psixolog ishladi. Uning qiziqishi (pazandalik) aniqlandi va qisqa muddatli kursga yo'naltirildi. Kichik yutuqlardan so'ng (birinchi sotilgan mahsulot) unda o'ziga ishonch (Self-efficacy) paydo bo'ldi. Natijada fuqaro B. keyinchalik imtiyozli kredit olib, faoliyatini kengaytirdi. U endi tashqi yordamga muhtoj emas, balki o'zi soliq to'lovchi subyektkga aylandi.

Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, ichki motivatsiya shakllanmagan joyda, tashqi resurslar ko'pincha samarasiz sarflanadi va boqimandalik kayfiyatini kuchaytiradi.

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat, xususan, mahallabay ishlash tizimi uchun muhim ahamiyatga ega.

**1. "Ayollar daftari" va psixologik yondashuv.** Bugun "Ayollar daftari" tizimi asosan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan. Biroq tahlillari-miz shuni ko'rsatadiki, tizim tarkibiga kuchli psixologik rehabilitatsiya komponentini kiritish zarur. Uyushmagan ayollarning aksariyati uzoq vaqt davomida uy bekasi bo'lganligi sabab ularda ijtimoiylashuv jarayoni buzilgan bo'ladi.

Moddiy yordam ko'rsatishdan oldin ayollarni "motivatsion treninglar"dan o'tkazish shart. Bu treninglar ularda "Men qila olaman!" degan ishonchni uyg'otishi kerak.

**2. Mahalliy hamjamiyat (mahalla) roli.** O'zbekiston sharoitida jamoaviy fikrning (collectivism) ta'siri kuchli. Uyushmagan xotin-qizlarda ichki motivatsiya oshirishda mahalladagi "Xotin-qizlar faoli" instituti nafaqat nazorat qiluvchi yoki taqsimlovchi, balki "mentor" (ustoz) vazifasini bajarishi lozim. Ayol o'zini yolg'iz his qilmasligi kerak. Mahallalarda muvaffaqiyatga erishgan tadbirkor ayollar va ishsiz ayollar o'rtasida "ustoz-shogird" an'anasini psixologik nuqtayi nazardan yangilash lozim.

**3. Noto'g'ri stereotiplarni sindirish.** Jamiyatimizda ba'zan "uyda o'tirish – ayolning asosiy vazifasi" degan stereotiplar uchrab turadi. Bu tashqi bosim ayolning ichki motivatsiyasini so'ndiradi. Psixologik ishlar nafaqat ayolning o'zi bilan, balki uning oila a'zolari (turmush o'rtog'i, qaynona) bilan ham olib borilishi kerak. Oilaviy qo'llab-quvvatlash – tashqi motivatsiyaning eng ijobiy shaklidir va u ichki motivatsiyaning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Uyushmagan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ichki va tashqi motivatsiya o'rtasidagi balansni ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqot xulosalari quyidagilarni tasdiqlaydi: tashqi motivatsiya (moddiy ko'mak) zaruriy boshlang'ich shart, ammo u barqaror rivojlanishni ta'minlay olmaydi. "O'rganilgan ojizlik" sindromi ayollarning ijtimoiy rehabilitatsiyasiga to'sqinlik qiluvchi asosiy psixologik to'siqdir. Haqiqiy ijtimoiy faollik faqat ichki motivatsiya – shaxsiy rivojlanish istagi va o'z kuchiga ishonch uyg'ongandagina yuzaga keladi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu nazariy qarashlarni empirik tajribalar (trening, so'rovnomalalar) orqali tasdiqlash va hududiy mentalitet xususiyatlarini inobatga olgan holda maxsus psixologik dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Amaliyotga tatbiq etish nuqtayi nazaridan, har bir mahallada "Psixologik qo'llab-quvvatlash burchaklari"ni tashkil etish va u yerda nafaqat muammoli vaziyatlar, balki shaxsiy rivojlanish dasturlari ustida ishlash uyushmagan xotin-qizlar qatlamini jamiyatning faol a'zosiga aylantirishning eng samarali yo'lidir.

Mohigul RAJABOVA,  
Xalqaro Nordik universiteti  
magistranti



Toshkentga kelmagan kim bor, nonini yemagan kim bor? Biz ham ulkan orzularni safarxaltaga joylab, "Toshkentni

zabt etaman!" deb kelgan qishloqilardan birimiz. Ammo... Toshkentni zabt etish uncha-munchasiga emas ekan, aka. Hatto ilk boshda jahongir bobomiz Amir Temur ham Toshkent shahriga yaqinlashish naryoqda tursin, loyga belanib, Chinozdan qaytib ketgan ekan...

Uydagilar qo'ymadi, qarindoshlar gapiraverdi, oxiri bor-e-e, mazmunsiz hayotimga ma'no kirar deb, dollarning oshgani, oqibatning tushgani, qimmat narxlar, kesilgan daraxtlar, havodagi changlar, yerdagi janglar, ekologiyaning buzilgani, dunyoning ertasidan umid uzilgani, suvlarning qurishi, Ukraina urushiga qaramasdan ko'zni shartta yumdim-u uylanib yubordim. To'ydan to'rt-besh kun o'tar-o'tmas, Toshkentga ketishga qaror qildim.

Qishloqda nima ham qilish mumkin: muallim bo'lay desang – dars, birovdan olay desang – qarz yo'q, qo'y boqay desang – qirlar tap-taqir, dehqonchilik qilishga – suv, bozorchi bo'lishga uquv yo'q.

Toshkentda yashash uchun nima kerak? Avvalo, ijara-ga uy kerak. Agar kvartira topish bu qadar mashaqqatli ish ekanini bilganimda, o'lay agar qishlog'imdan bir qadam ham chiqmagan bo'lardim. Toshkent televizorda ko'ringani kabi emas ekan, qayerdan bilay?!

"Hammasi yaxshi bo'lar", deb katta umidlar bilan ko'ch-ko'ronimni yig'ishtirdim-u avtobusga chiqdim. Yo'l-yo'lakay Toshkentdagi tanishlarga telefon qilib, men borguncha kvartira topib qo'yinglar, dedim. Ular ham boshda ko'ngli sinmasin deganmi, "Kelaver, uy bo'lsa, topiladi" deyishdi.

To'yda kayfi oshgan jo'ralar va qarindoshlarning qistirgan to'rt-besh so'midan boshqa cho'ntakda pul yo'q. Shunga qaramay, ming qo'lyi boydek o'zimcha yo'l-yo'lakay kelajagim haqida uzundan uzoq rejalar tuzib keldim: diplom bor, Xudoga shukur. O'ldim deganda biror maktabdan ish toparman. Direktorga chiroyli qilib bir-ikkita she'r aytib bersam, 1 stavka ish naqd. Qayerdan topadi mendek o'qituvchini? Toifa-poyifa olguncha 3-4 million oylik berishdi, deylik. 1 million – nari borsa, kommunal to'lovlari bilan 1,5 millionga o'rtacharoq sharoitda bo'lsa ham kvartira topsam, 2 milliondan ko'proq pul qoladi. Ovqatlanish uydan. Tushlikni xotin qilib beradi. Tugunchaga solib bersa, o'quvchilardan panaroq joyda qorinni to'ydirib olaveramiz-da. Ellik-ellikni tashlasak, kamroq cheksak, u yog'i gullab-yashnab ketadi...

Avtovokzalda Toshkentda o'qiydigan bir qishloq-doshim kutib oldi. Uy ham topib qo'yibdi, baraka topsin. "Sharoiti zo'r", deydi. Metroga yaqin joydan emish. Konditsioner bor, televizor bor. Birgina aybg'inasi – kir mashinasi yo'qmish. Shunga ancha arzon narxda berayotganmish egasi.

– Ee-e, uka, ajoyib odamsan-da. Bizga to'rtta devori, yarimta kigizi bo'lsa bo'ldi edi. Konditsioner-u televizorni nima qilaman? Yana kirmoshin yo'q deb kuyunasan. Uning bizga keragi yo'q. Mana yangang – kirmoshin, ovqat pishirgich, changyutkich, uchasi birda. Har zamon-da qarg'ab turishini aytmasa, inq etmay ishlaydi. Hali yangi, Xudoga shukur. Qani, bizni olib bor yangi uyimizga. Yo'l charchatdi. Tezroq joylashib olaylik. Yangang oshni boshlasin. Keyin yonboshlab gurung qilaveramiz.

Taksiga ko'ch-ko'ronni amallab joylab, yangi kvartira tomon ravona bo'ldik. Yo'l-yo'lakay o'zimga deyman: "Xudo degan bandaman-da, o'ziyam. Har ishim shunday oson hal bo'lib ketaveradi. Toshkentga qadamimni bosar-bosmas ijara uy muammosidan qutuldim. Endi amal-lab ish topsak bo'lgani".

Kvartira shaharning sal chetida bo'lsa ham, yangi qurilgan metroga yaqin joyda ekan. Ko'p qavatli uylarning biri yonida to'xtadik. Taksidan tushar-tushmas xushmu-



# O'QITUVCHI IJARADA TURSA...

omalagina bir opaxon bizni kutib oldi. Hali podyezdga kirar-kirmas, ijara uyni og'zidan bol tomib maqtay ketdi. O'zi bir xona bo'lsa ham, kengishgina emish: yozda salqin, qishda issiq. Bu uyda ijarada kim turgan bo'lsa, barchasi yangi uy olib chiqib ketganmish.

Qo'shnilar ahil, mahalla tinch...

Opaxon nafas olmay gapirishda davom etdi. Ichimda: "Uyning egasi sal ezmaroq bo'lsa ham, yaxshi xotinga o'xshaydi. Kelishib ketamiz", deb o'yladim.

Uy opaxon maqtaganchalik bo'lmasa ham, yashasa bo'ladigan joyga o'xshadi. Katakdekkina bir xona, shkaftdan sal kattaroq oshxona. Achomlashib yotsak, er-xotin ko'ch-ko'ronimiz bilan amallab sig'arkanmiz. Bir tomondan shu ham yaxshi: urishib-netib qolsak, qishloqdagidek qirma-qir quvalashib yurmaymiz. Xotin sal injilsa ham, boshlanishiga bo'laveradi, dedim.

– Opa, uy bizga yoqdi, endi tezroq narxini kelishaylik, yo'ldan charchab kelganmiz.

– Narxi, ukajon, juda arzon. Bunday kvartirani kunduzi chiroq yoqib ham to'polmaysiz. Atigi 400 dollar.

– NIMA?!

Muzladim. Tilim kalimaga kelay qoldi. Opa to'xtamay gapirishda davom etdi. Ishonmasam, surishtirib ko'rarmishman, shaharda bunday kvartirani 450–550 dollardan kamiga topib bo'lasmish. Xudo yorlaqagan odammishman. Shu kabi kvartira menga nasib qilib turganmish. Haligi qishloqdoshim ham mening tarafimda turish o'rniga opaxonning gapini ma'qullab, bosh igr'ab turibdi, deng.

– Opajon, bu narx juda-juda qimmat, kelishtiring, – deya oldim zo'rg'a o'zimni to'plab.

– Ukaginam, yaxshi odam ko'rinasiz, uyning egasi kelganda iltimos qilsangiz, ozroq tushib berar. Men hech narsa qilolmayman.

– Kechirasiz, siz hali uyning egasi emasmisiz? Kimsiz unda?

– Men maklerman, uka...

Bunaqa nomni hayotimda eshitmaganim uchun haligi qishloqdoshimni chekkaga tortib so'radim. Uning g'uldirashidan o'zimcha tushunganim shu bo'ldi: bu opa o'zimizning bozordagi mol-jallobday bir gap. Uy egasiga ijarachi topib beradi, ijarachiga uy. O'rtada ijara haqining yarmini oladi. Deylik, shu tovuq katagidek uyni anoyi bo'lib 400 dollarga olsam, shu pulning yarmini, ya'ni yana 200 dollarni opaxonga berishim kerak ekan. O'zim ham aytdim: buncha o'rgilib-aylanadi, xushmuomala, deb. Jami 600 dollar kerak ekan shu katakka kirib olish uchun. Agar uy egasi depozit so'rasa, qo'shiladi yana 400, bo'ladi 1000. Hi-iii... Yana gaz, svet, suv, unisi-bunisi mening bo'ynimda. Og'zimdan ko'pik kelib, shu yerda o'lib-netib qolmasam bo'ldi.

– Boshqa uy ko'raylik, uka, – dedim haligi qishloqdoshimga.

– Qayerga borsang bor, hamma ijara uylar narxi shu. Bu yerni Toshkent deb qo'yibdi, katta xolangning mahallasi emas, – dedi u.

– Uy egasi qachon keladi, opa?

– Hozir gaplashdim. Boshqa ijara uylaridan pul to'plab yurgan ekan. "Kechgacha yig'ib bo'laman, keyin kelaman", dedi.

Qishloqdoshimning qulog'iga shivirladim:

– Jon uka, chiqmagan jondan umid, bir qidirib ko'raylik. Qaydan topaman buncha pulni men?!

Qishloqdoshim ichida so'ksa ham rozi bo'ldi. Shaharda ko'ch-ko'ronni orqalab, ustiga xotinni yetaklab uy qidirib bo'ladimi? Shunga opaxonni o'zimizcha avragan bo'ldik:

– Opajon, uy bizga yoqib turibdi. Egasi bilan kelishsak, shu yerga joylashamiz, Xudo xohlasa. Uyning egasi kelguncha hali 5-6 soat vaqt bor ekan. Ungacha biz



shaharni aylanib kelsak. Siz kelin bilan choy-poy ichib, hangomalashib turinglar.

Opaxon 200 dollar naqd ekaniga quvonib, darrov rozi bo'ldi. Biz yo'lga ravona bo'ldik. Toshkentda biz kabilar ijara uy qidiradigan "uybozor" bor ekan. Qishloqdosh avval shu joyga yetaklab bordi. Uybozor ham molbozorday bir gap ekan: g'ala-g'ovur, baqir-chaqir. Bozor ijara uy manzili va narxi haqida ma'lumotlar yozilgan katta karton qog'ozlarni bo'yniga osib olgan maklerlar va biz kabi ijara uy qidirib, sillasi qurigan bechoralarga to'la. Maklerlarning barchasi "mashennik" bo'lsa ham chetdan qaraganda bip-binoyidek, insofli, iymonli bo'lib ko'rinar. Erkak maklerlar bir qarich soqol qo'ygan, boshida mulla chapich, qo'llarida tasbeh – pok-pokiza hoji akalarga aylanib olishgan. Ayollar ham bizning opaxon bilan bir xil. Biram xushmuomalaki, onam ham menga buncha mehr ko'rsatmagan...

Bozorni uzoq aylandik. Haqiqatan ham bir xonali katakdek uylarning narxi 450–500 dollardan kam emas ekan. Yalinib-yolvorsangiz ham bir so'm tushmaydi. Qishloqdoshim internetdan ham rosa qidirdi. Arzon kvartira hech qayerda yo'q. Shartta talaba qishloqdoshimga elana boshladim.

– Sadag'ang ketay, jon ukajon, vaqtinchalik sening kvartirangda turib turaylik. Bir ko'rpachalik joy bo'lsa ham yetadi. Yangang shirin-shakar ovqatlar qilib beradi, kirlaringni yuvadi... nima deding-a?

– Aka, sizlar-ku oila. Hozir talabalarga kvartira topish o'limdan ham qiyin. Biz ham boyagi ko'rgan katalakdan ham kichik joyda 38 kishi yashaymiz. Siz ko'rpacha deysiz. O'zimiz tikka turib uxlaymiz. Hech iloji yo'q. Undan ko'ra qishloqqa qayting. Qo'y-po'y boqib, ko'proq pul to'plagach, qaytib kelarsiz, – dedi.

Qishloqqa qaytish?! Undan ko'ra o'lganim yaxshi. Agar qaytsam, butun qishloq bir umr gapirib yuradi: "Falonchining bolasi o'zicha kerilib, toshkentlik bo'laman deb yurgandi. Ana, bir kun ham yasholmay qaytib kelibdi", deb. Men bu gaplarni hech ko'tara olmayman. Hammasiga ko'nib qaytsam ham otam uyga kiritmaydi.

Ichimda butun ajdodlarimni malomat qildim. To'g'rida, insoniyat paydo bo'lganiga millionlarcha yil bo'lgan. Millionlarcha yil oldin ham men hozir qonini tashib yurgan biror ajdodim yashagani aniq. Million yilni qo'yib turaylik. Tosh davrida, u ham mayli, keyingi ming yillar davomida nahotki biror ajdodimning aqliga: "Kel, shu gadoytopmas qishloqda nima qilamiz, shaharga ko'chib o'taylik", degan fikr kelmagan bo'lsa?

Amir Temur qo'shinida ham biror ajdodim bo'lgandir. Buyuk bobomiz harbiy yurishlari davomida necha martalab Toshkentdan o'tgan. Shu safarlarning birida haligi ajdodim "Toshkent bahavo joy ekan, shu yerda qolaman", desa, haqqi ketib qoladimi?! Shonli Amir Temur qo'shini bir safar mening ajdodim qatnashmagani uchun jangda yengilib qolmasdi-ku! Qo'mondonlar ruxsat bermasa, "qornim og'riyapti" deb bahona qilsa ham tushunishardi. Mayli, Toshkentning markazi bo'lmasin, hech bo'lmaganda Yangiyo'ldan bo'lsa ham biror sotix joyga chayla tikib, shu yerga o'rinishib qolsa bo'lasmidi? Undan keyingi yuz yillardagi ajdodlarimda ham qancha imkon bo'lmagan, deysiz? Birortasi mendan oldinroq toshkentlik bo'lib olsa, hozir kvartira qidirib sarson bo'lmagan bo'lardim...

U qildik, bu qildik, hech iloji topilmagach oxiri haligi katalak uyga qaytib keldik. Borsak, uy egasi ham kelgan ekan. Burni havoda, turishi Farmonbibidek, xuddi osmonning bir tomonini ko'tarib turgandek. Tishi tilla, bo'yni zumrad, bilagi oltin, o'zi beva ekan. Sovet zamonida ko'p katta joylarda kotiba bo'lib ishlagan emish (hali ham biror joyga kotiba bo'lay desa, bo'lgulik). "Yaxshi ishlagani" uchun har ishlagan joyidan boshliqlari uy hadya qilgan ekan. 10–15 ta kvartirasi bormish. Hammasiga ijarachi qo'ygan, ulardan keladigan pulning hisob-kitobi yo'q.

Ancha boy kampir ekan. Vaziyatni tushuntirsam, insof qilib, ijara narxini tushirar, deb o'yladim ichimda va sekin gap boshladim:

– Xolajon, siz aytgan narxda ijara haqi to'lashga umuman imkonimiz yo'q. Ozroq kelishtiring. Yosh oilamiz...

Narxni arzonlashtirish haqida aytishim bilan haligi osmonni suyab turgan xola birdaniga bechora, bukri kampirga aylandi, qoldi. O'zi kasal emish, biz to'lagan pulga dori-darmon olarmish. Bir so'm ham tushirishning iloji yo'qmish...

Men ham kampirdan besh battar bechora rolini "yoqib" oldim.

– O'zim ham, xotinim ham g'irt yetimmiz, hech kimimiz yo'q. Duo qilamiz, xolajon, biz duo qilsak, narigi dunyoda jannat – "garantiya". Qizli bo'lsak sizning otingizni qo'yamiz. Jonimizsiz, jigarimizsiz...

Ko'navermagach oxiri "ona mehri ko'rmaganmiz", deb haligi kampirni xotin ikkalamiz mahkam quchoqlab oldik. Uni ko'rgan maklerning ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Xullas, bir amallab kampirni 50 dollarga iydirdik. Uyni 350 dollarga beradigan bo'ldi.

Tanishlardan qarz ko'tardim, bankdan kredit oldik. Xotin mahrga berilgan uzugini sotdi. Xullas, bir amalab kampirni ham, maklerni ham rozi qilib shu katalakka ko'chib kirdik. Endi ijara haqini to'lash – bir masala. Kunduz ham, kecha ham halovat yo'q.

Boshda reja qilganimdek, maktabga ishga kirdim. U yerdan oladigan arzimagan oyligim ijarani to'lashga qayerdan yetsin? Maktabdan keyin qurilishda, undan keyin kurier bo'lib ishlayman. Ertalabgacha esa bir tashkilotda qorovulman. Yigirma to'rt soat ishlab zo'rg'a ijara haqiga pul yetkazyapman. Topgan pulim ijaraga ketgani uchun ro'zg'or xotinning zimmasiga tushdi. U ham tinmay ishlayapti: pirojki pishirib sotadi, tikib-bichadi (birovga aytib qo'ymang-ku, yaqinda qushnochlikni ham boshlab yubordi. Fol-mol, issiq-sovuq degandek...).

Qizig'i, tun-u kun ishlaganim uchun ko'chib o'tganimizdan beri u zormanda kvartirada bir kun ham yashaganim yo'q. Xotin bilan ham ko'rishmaganimizga oylar bo'ldi. Faqat har zamonda telefonlashib turamiz. Shunga qaramay baxtli-saodatli oilamiz.

Hurmatli hamkasblar, Toshkentda arzonroq ijara uy bo'lsa, xabar qilsangiz, xursand bo'lamiz!

## Xalqaro sharh

## AHMOQ PODSHO

Qadim-qadimdan xalq nodon hukmdorlar ustidan kulib, ertaklar, matallar to‘qigan. Shulardan biri “Ahmoq podsho” degan o‘zbek xalq ertagidir. Uning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Bir o‘g‘ri kambag‘alning uyini to‘namoqchi bo‘ladi. Tunda tom oshib kirayotganida, tom o‘pirilib o‘g‘ri yiqilib tushadi va podshoga arzga boradi. Podsho arzing nima, deb so‘raganida:

– Tomini bordon bilan omonat yopgan ekan, yiqilib oyog‘im sinishiga oz qoldi. Bu uchun uy egasiga jazo berishingizni so‘rayman, – deydi. Podsho kambag‘alni chaqirtirib, jazolamoqchi bo‘ladi. Kambag‘al aybni ustaga to‘nkaydi, ustani ushlab kelishadi. Usta bordonchini, bordonchi kaptarbozni ayblaydi va hokazo. Xullas, ish aylanib-aylanib yana o‘g‘riga kelib taqaladi. O‘g‘rini ossalar, novchaligidan oyog‘i yerga tegib qoladi. Uning o‘rniga osish uchun pakana odamni tutib keltirishadi. Axir kimnidir jazolashlari kerak-da. Pakana bo‘yi past bo‘lsa ham, anchayin aqlli ekan. U podshoga dorning tagini chuqurroq kovlashni maslahat beradi. Podsho yerni kovlatib o‘g‘rini osishga buyuradi. Shu payt o‘g‘ri:

– Meni tezroq osa qolinglar, – deb yalib boshlaydi. Podsho undan:

– Nega buncha o‘limga shoshilasan? – deb so‘raydi. O‘g‘ri unga:

– Hozir jannatning podshosi o‘lib qolibdi, men tezroq borib podsho bo‘lishim kerak. Jannatning podshosi o‘layotib: “Kim birinchi bo‘lib kelsa, o‘sha odamni podsho qilinglar”, debdi. Shuning uchun shoshilyapman, – deya yana qistay boshlaydi. Ahmoq podsho:

– Iye, unaqa bo‘lsa, jannatda ham o‘zim podsho bo‘lay, dorga meni osa qolinglar, – debdi va dorga tortilib, fuqarolari undan qutulgan ekan.

Garchand bu ertak xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lsa-da, bugungi dunyodagi ayrim voqealar shu cho‘pchakka juda-juda o‘xshab ketadi. Yaqinda AQSH prezidenti Donald Tramp Ukrainada tinchlik sulhi tuzilmayotgani uchun yana Zelenskiyni ayblab chiqdi. Go‘yo, urushni boshlagan Vladimir Putin tinchlik istayotgan emish-u, bunga Ukraina prezidenti to‘sqinlik qilayotgan emish. Yuqoridagi ertakdagidek, o‘g‘ri bu yoqda qolib, jabrlangan ukrainlar jazoga mahkum emish. Aslida, Trampning Zelenskiyni xushlamasligi boshidan ma‘lum edi. Chunki u bir paytlar vaziyatdan kelib chiqib, sobiq prezident Bayden bilan qadrdonlashib, uning o‘g‘lini muqarrar jazodan xalos etganligi tarixiy fakt. Tramp esa Baydenni o‘lgudek yomon ko‘radi. Endi Tramp nima uchun Putinga buncha yon bosadi, degan savolga ham javob mavjud. Uzunquloq gaplarga qaraganda, Trampning biznesi 2008-yilda xatarli inqiroz yoqasiga kelib qolganida, uni kremldagilar tanazzul botqog‘idan chiqazib qo‘ygan deyishadi. Buning ustiga to‘liq tasdiqlanmagan ma‘lumotlarga ko‘ra, Trampning hokimiyat tepasiga kelishida rus maxfiy maxsus xizmatining hissasi borligi taxmin qilinadi. Garchand buni Moskva tomoni rad etib kelayotgan esa-da, shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. Ekspertlarning aytishicha, aynan ana shu omillar Trampning Putinga bo‘lgan simpatiyasining birlamchi sabablaridir. Ikkinchi tomondan “Ko‘r ko‘rni qorong‘uda taniydi”, deganlaridek, bu har ikki arbob xuddi ekizaklarni eslatadi. Ik-

kisi ham o‘ta shuhratparast, o‘jar, jizzaki, ginachi, kalondimog‘ va ayyor. Ikkovi ham o‘zini xaloskor deb hisoblaydi. Biri o‘zini Amerika dunyosining tayanchi deb hisoblasa, ikkinchisi rus dunyosining pushti panohi deb biladi. Ikkalasi ham nomi dunyo tarixi sahifalarida zarhal harflar bilan yozilishini istaydi. Eng yomoni: Tramp ham, Putin ham xalqaro huquq va qonun me‘yorlarini bir tiyinga olmaydi. Bu bora-da Tramp dunyodagi barcha diktatorlarni bir cho‘qishda qochirmoqda. Masalan, u yaqinda Grenlandiya orolini AQSHga qo‘shib olish tashabbusi bilan chiqdi. Kim-da-kim uning ra‘yiga qarshi chiqsa, o‘zaro savdoda o‘n foizlik poshlina ham e‘lon qilib yubordi. Yevropa davlatlari darhol bunga qarshi choralar ko‘rmocchi. Ular orolni himoya qilish uchun bir necha yuz askarni Grenlandiyaga jo‘natishdi. Ammo

# KAPALAKLAR O‘YINI

Tramp orolni qo‘lga kiritishga astoydil bel bog‘lagan. Hatto, u 700 milliard dollar xarajat qilib Grenlandiyani Daniyadan sotib olmoqchi bo‘lib turibdi.

Bir tomondan olib qaraganda, bugungi notinch dunyoda Grenlandiya AQSH uchun strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanadi. Shu ma‘noda, Amerika Daniya bilan qandaydir kelishuv yoki shartnoma asosida oroldan foydalanib turishi ham mumkin. Qolaversa, hozirning o‘zida shundoq ham Grenlandiyada AQSHning katta harbiy bazasi mavjud. Ammo Trampni biznesmen sifatida masalaning boshqa tomoni ham qiziqtiradi. Arktikadagi tabiiy boyliklar bugun nafaqat Amerika, balki Rossiya va Xitoy kabi yirik, qudratli davlatlarning ham ko‘zini o‘ynatmoqda. Bu esa Trampga mutlaqo yoqmayapti.

## MIYADAGI KAPALAKLAR

Kapalaklar, ularning go‘zalligi haqida yozmagan biror shoir topilmasa kerak. Xalq shoiri Muhammad Yusuf ham “Kapalaklar odamlardan mehribon” deya ularga juda yuksak baho bergan. Ammo biologik jihatdan olib qaralsa, kapalaklar tabiatga katta zarar keltiruvchi zararkunanda qurtlarning onasi yoki bolasi hisoblanadi. Bugun go‘zalligi bilan havasingizni qo‘zg‘agan nafis kapalak ertaga badbashara va yoqimsiz qurtga aylanadi. Qarangki, bu xildagi evrilishlar jamiyatga ham xos hodisa ekan. Shu jihatdan jamiyat tabiatning uzviy bir qismi ekanligi yana takror tasdiqlanadi. Aytaylik, o‘zimizning eng yaqin tariximizni olib ko‘radigan bo‘lsak, rus bosqinidan keyin xalqimiz Rossiya qo‘li ostida yashadi. Qonxo‘r Nikolay poshshoning zulmi avjiga yetgach, o‘z xalqi unga qarshi chiqdi va bu xunuk maxluqni, tashbeh bilan aytadigan bo‘lsak, “qurt”ni ezig‘ilab tashladi. Ammo qurt o‘lmadi, o‘rnida jozibali g‘oyalari bilan “kapalak” – Vladimir Lenin paydo bo‘ldi. 1924-yilda u ajali yetib vafot etdi. Uning o‘rniga xuddi po‘stini almashtirgan “qurt”dek zolim Iosif Stalin paydo bo‘ldi. 1953-yilda uni o‘z safdoshlari narigi dunyoga jo‘natishgach, yangi “kapalak” – islohotchi Nikita Xrushchyov siyosiy maydonga chiqdi. Uning siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlari yoqinqiramadi, shekilli,

1964-yilda firqadoshlari Kremldan haydab chiqarishdi. Natijada navbatdagi “qurt” – Leonid Brejnev hokimiyat tepasiga kelib, stalincha boshqarish uslubini qayta tikladi. 1985-yilning bahoridan rus siyosiy dalasida yangi “kapalak” – demokrat Gorbachyov parvoz qila boshladi. Uning parvozini izdoshi Yelsin davom ettirmocchi bo‘lgandi, ammo evrilish fursati birdan yetilib qoldi va qobig‘idan yangi “qurt” – Putinni chiqardi. Mana, 25 yildirki u o‘zining nobop faoliyati bilan nafaqat rus jamiyatini, balki jahon hamjamiyatini ham halokat jarligi yoqasiga keltirib qo‘ydi. Oqibatda dunyo xalqlari Uchinchi jahon urushi xatari bilan yuzma-yuz bo‘ldilar.

Amerikada ham shu ahvol. Faqat farq shundaki, ularda evrilishlar har to‘rt yilda sodir bo‘lib turadi. Demokratlar va respublikachilarning galma-gal almashi-

nuvi AQSH siyosatini o‘zgartirib turishi hammaga ma‘lum. Ularda ham “kapalaklar va qurtlar” evrilib turadi. Farqi shuki, ular ipak qurtiga o‘xshaydi va faoliyatini o‘z xalqi farovonligini oshirishga yo‘naltiradi. Bu orada jahon bog‘ida qanchadan qancha tutlar kesilib ketilishi amerikaliklarni mutlaqo qiziqitmaydi. Chunki pul chiqaradigan dastgoh AQSH qo‘lida. Demakki, dunyo boyliklarining barisi amalda bo‘lmasa ham, aslida Amerikaning mulki bo‘lib chiqadi. Dunyoda dollar hukmronligiga barham berilmagunicha shu holat davom etaveradi. Trampning Yevropaga qarshi turishi asosida ham dollar bilan raqobatlashayotgan yevroning piligini pasaytirib qo‘yish maqsadi turganligini sezish qiyin emas. Bu yo‘lda u huquqiy me‘yor yoki xalqaro shartnomalarga amal qilish istagidan mutlaqo yiroq. Shu ma‘noda, Putin Rossiyani XIX asrga sudrayotgan bo‘lsa, Tramp Amerikani XVII–XVIII asrga tortmoqda. Ana o‘sha yillarda yevropalik kolonizatorlar yangi-yangi hududlarni egallash maqsadida bir-birlari bilan davomli urush olib borganlar. Tramp ham xuddi o‘shalardek Meksika, Kanada, Panama, Kuba, Grenlandiya singari qo‘shnilarini Amerikaga qo‘shib olish ilinjida. Uning egizagi Putin ham xuddi o‘tmishda bo‘lganidek, yon atrofdagi Ukraina, Kavkaz, Markaziy Osiyo respublikalarini yana imperiya tarkibiga qaytarish orzusi bilan yashamoqda.

## YANGI ASR – YANGI DUNYO

Ko‘pchilik davrlar almashinuvini, shunchaki, shartli bir chegara deb o‘ylaydi. Aslida esa bunday emasga o‘xshaydi. Masalan, Vladimir Putin naq 2000-yilda hokimiyat tepasiga keldi, xuddi ana shu yili Donald Tramp ham prezident bo‘lish umidida siyosiy harakatini boshlab yuborgandi. Bu tasodifmi? Ma‘lumki, fizikada rezonans hodisasi degan tushuncha bor. Ta’sirlanayotgan ikki jismning tebranish chastotasi bir-biri bilan mos kelib qolganda tebranish kuchi bir necha barobar kuchayib, halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Aynan shu bois ham, ko‘prikdan o‘tayotgan askarlarga tartibsiz qadam tashlash buyuriladi. Afsuski, shu kunlarda Tramp bilan Putinning harakati rezonans holatiga tushib qoldi. Biri tezroq Nobel

tinchlik mukofotini olish payida, ikkinchisi tezroq Ukrainadan Donbassni jangsiz tortib olmoqchi. “Qassobga moy, echkiga jon qayg‘usi” deganlaridek, jafokash ukrain xalqi dushmanga qarshi janglarda jon olib jon bermoqda. To‘g‘ri, ularga AQSH boshliq Yevropa mamlakatlari madad qilib turibdi. Bir vaqtlar amerikalik mashhur siyosiy arbob Genri Kissinjer: “Amerikaga dushman bo‘lish xavfli, do‘st bo‘lish esa halokatli”, degandi. Dunyodagi keyingi voqealar buni batamom tasdiqladi. 2025-yil 28-dekabrda Eronda xalq g‘alayonlari boshlanib ketgandi. Trampning tuturiqsiz va‘dalari oqibatida minglab isyonchilar halok bo‘ldi. Tramp oyatillo-lar rejimiga qarshi bosh ko‘targan isyonchilarni gij-gijlab, ularga va‘da qilingan yordamni yubormadi. Natijada isyon bostirilib, o‘n minglab odamlar qamoqqa olin-di. Ukrainada ham urush jabrdiydalariga tinchlik va‘da qilib, ustidan chiqilmadi. Trampning betayinligidan foydalangan Putin tinchlik muzokaralarining cho‘zishidan o‘zining qabih niyatlarini amalga oshirish yo‘lida unumli foydalanmoqda. Ukraina shaharlariga raketa yog‘dirib, tinch aholiga qiron keltirmocda. Trampning betayinligi va Yevropaning tarqoqligi bosqinchilarga qo‘l kelmoqda. Sharqiy Ukrainadagi shahar hamda qishloqlar batamom vayron qilindi, markaziy va g‘arbiy viloyatlarda infrastruktura inshootlari ishdan chiqarilmocda. Maqsad: Ukrainani holdan toydirib taslim qilish ekanligini Kreml ochiq tan olib aytmoqda. Biroq bosqinchilarning har bir harakati mutlaqo teskari natija bermoqda. Ukrainalar har qachongidan jipsroq uyushib, vatanlarini mardona himoya qilishmoqda. Bu orada Ukraina qurolli kuchlari zamonaviy texnika va harbiy tajriba bo‘yicha jahonning peshqadam armiyalaridan biriga aylanib ulgurdi. Hatto ular: “Mabodo Zelenskiy Trampning gapiga kirib, Donbassni ruslarga berishga rozi bo‘lsa ham, biz uning buyrug‘iga bo‘ysunmaymiz, Vatanimizni so‘nggi qoshiq qonimiz qolguncha himoya qilamiz”, deyishmoqda. Darhaqiqat, Putin istayotganidek Donbassni jangsiz topshirish Ukraina uchun taslim bo‘lish bilan teng. Bunga prezident ham, xalq ham, armiya ham aslo ko‘nmaydi. Ukrainlarning to‘rt yil davomida olib borayotgan qonli kurashi oxir-oqibat Rossiyan ham charchatib qo‘ydi. Berilayotgan hisobsiz qurbonlar, iqtisodiy mushkulliklar va xalqaro sanksiyalar Kremlni tinchlik muzokaralarini boshlashga undamoqda. Bunday sharmandali holatdan chiqib ketish Moskva uchun g‘oyat og‘ir kechmoqda. Urushni cheksiz davom ettirish mumkin emas, g‘alaba qilishga esa kuch yetmaydi, xullas, bugun rus ma‘murlari go‘yo boshi berk ko‘chaga kirib qolgandek. Ular uchun endilikda yagona bir dastak qoldi, u ham bo‘lsa atom-yadro qurolidir. Kremldagi urushqoq quzg‘unlar har damda yadro kaltaklarini o‘qtalib, dunyo hamjamiyatini qo‘rqitmoqchi bo‘lyaptilar. Biroq shuni esdan chiqarmaslik kerakki, yadro quroli raqiblarda ham bor. Shu ma‘noda, uni amalda qo‘llash urush-qoqlarning o‘zi uchun ham halokatli bo‘lishi mumkin.

Maqolamizni ahmoq podsho haqidagi ertak bilan boshlagan edik. Ammo hozirgi podsholar o‘ta aqlli va ayyor. Ular o‘zini jo‘rttaga jinnilikka solishi mumkin. Bu ham mimikriyaning bir ko‘rinishi bo‘lsa ajab emas. Qolaversa, uch-to‘rt yildan keyin kapalaklarning pilladan chiqish mudati ham yetib qoladi. Bu so‘ngsiz jarayon abadiy davom etaveradi.

Xudoyberdi KOMILOV,  
siyosiy sharhlovchi

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DIN ISHLARI BO'YICHA QO'MITASI HUZURIDAGI DINIY-MA'RIFIY SOHADA MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH INSTITUTI OLIY MA'LUMOTGA EGA BO'LGAN OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING DINSHUNOSLIK FANIDAN DARS BERAYOTGAN NOMUTAXASSIS PROFESSOR-O'QITUVCHILARINI QAYTA TAYYORLASH KURSLARIGA QABUL E'LON QILADI!

Qayta tayyorlash kurslari ta'lim tashkilotlari-ning islomshunoslik, dinshunoslik, davlat va din munosabatlari asoslari fanlaridan dars beradigan, oliy ma'lumotga ega nomutaxassis pedagog kadrlarini qayta tayyorlash, ilgari olingan bazaviy(oliy) ma'lumoti darajasi, qayta tayyorlashning turi va kasbiy faoliyatining o'ziga xosligiga ko'ra, 576 soatdan kam bo'lmagan hajmda tashkil etiladi.

Qayta tayyorlash kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan ta'lim tashkilotlarining oliy ma'lumotga ega nomutaxassis pedagog kadrlariga davlat namunasidagi diplom beriladi hamda ular ta'lim tashkilotlarida islomshunoslik, dinshunoslik fanlaridan dars berish huquqiga ega bo'ladi.

## O'QISH ISTAGINI BILDIRGAN SHAXSLAR QUYIDAGI HUJJATLARNI TAQDIM ETISHI LOZIM:

- oliy ma'lumoti to'g'risidagi diplom va diplom ilovasi asli;
- pasport (ID) nusxasi;
- mehnat daftarchasidan nusxa;
- ish joyidan ma'lumotnoma;
- 3x4 rasm(6 dona);
- yo'llanma.

Qayta tayyorlash kurslari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda to'lov-kontrakt asosida joriy yilning fevral oyidan amalga oshiriladi.

**Manzil: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-"a" uy.**  
**Murojaat uchun telefon raqami: (71) 244-69-32, (97) 719-80-26, (90) 018-01-19**

### Jarayon

## BIR LOYIHA — MING IMKONIYAT

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda mahalliy, milliy, global muammolarga befarq bo'lmagan, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi, vatanparvar, tashabbuskor shaxsni tarbiyalash har bir davlatning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Shu bois dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ta'lim va tadqiqot muassasalari o'quvchilarning nafaqat bilimi, balki ijodiy salohiyati, jismoniy sog'lomligi, ruhiy barqarorligini saqlashga qaratilgan ilg'or texnologiyalarni joriy etmoqda. Bu orqali yoshlar mustaqil hayotga tayyorlanadi, bo'lg'usi kasbini ongli tanlash va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishga yo'naltiriladi. Yurtimiz ta'lim tizimida ham keng islohotlar davri kechayotir. Xususan, "Ishonch" jamg'armasining "Yuqori sifatli va inklyuziv ta'lim natijalariga erishish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli ta'limdan foydalanish" loyihasi doirasida umumiy qiymati 23,5 mln AQSH dollari miqdorida mablag' ajratildi.

Respublikada 50 ta umumta'lim muassasasi "Ishonch-2030" loyihasiga kiritilgan. Loyiha umumta'lim muassasalari, pedagog kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan muhim tashabbuslardandir.

STEAM yondashuvi AQSHning Massachusetts texnologiyalar institutida (MIT) ishlab chiqilgan. Bu mash-

hur institutning shiori "Mind and hand" — "Aql va qo'l"dir. Massachusetts texnologiyalar instituti STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hatto ba'zi o'quv yurtlarida STEAM ta'lim markazlarini yaratdi. Hozir Avstraliya, Buyuk Britaniya, Isroil, Kanada, Xitoy, Singapur, AQSH ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Yondashuvning maqsadi ta'lim oluvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ularni loyihalashtirish asosida o'qitish orqali tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, matematika va san'atdan samarali foydalanishga o'rgatishdir.

"Ishonch-2030" loyihasi doirasida Romitan tumanidagi 1-maktabda ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- STEAM xonasi;
- o'qituvchi va o'quvchilar dars jarayonlarida foydalanadigan zamonaviy texnika vositalari va asbob-uskunalar;



- inklyuziv o'quv xonasi;
- maxsus yo'lakchalar va hojatxona talab darajasi-da tashkil etildi.

"Ishonch-2030" loyihasi asosida pedagoglar malakasini oshirish va tajriba almashish maqsadida respublikada tashkil etilgan seminarlarda ishtirok etishi samarali bo'ldi.

Shuningdek, 2025-yili inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha respublika o'quv-seminarida ham tajriba almashishga muvaffaq bo'ldi. Ayniqsa, "Ishonch" jamg'armasi tashabbusi bilan 2025-yil 16-dekabr kuni respublika jamoatchiligining katta guruhi maktabimizga tashrif buyurishi maktab ma'muriyati, pedagoglar va ota-onalarni quvontirdi. Ular maktabda tashkil etilgan "Ishonch-2030" loyihasi natijalarini ko'rib, qo'shimcha fikr va takliflar berdi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM — zamonaviy ta'limning muhim yondashuvlaridan biri. Chunki u o'quvchini faol ijodkor va izlanuvchi shaxsga aylantiradi. Bunday yondashuvda fanlararo integratsiya orqali o'quv jarayoni real hayotga yanada yaqinlashadi, bilim esa amaliy faoliyat bilan uyg'unlashadi. O'quvchi nazariy tushunchalarni egallash bilan birga, ularni sinab ko'radi, yangi g'oyalar yaratadi.

**Marhabo QOZOQOVA,**  
Romitan tumanidagi  
1-maktab direktorining o'quv ishlari  
bo'yicha o'rinbosari



– Dadajon, – dedi shoshib yo‘lga otlanayotgan kelin, – cho‘y sovitmagichni qaynoq suvga to‘ldirib qo‘ydim. Mollarga yemish ham, suv ham berdim. Alag‘da bo‘lmay, xotirjam o‘tiravering. Nabiralaringiz maktabdan hali zamon kelib qoladi. O‘zingizni urintirib qo‘ymang. Yana uch soatgina darsim bor edi. Maktabga borib kelay...

Qo‘shnisi bilan gurunglashib o‘tirgan Jo‘ra bobo:

– Xo‘p, bolam, xo‘p. Umrindan baraka top. Ilohim, bolalaringdan qaytsin, deya kelinini duo qildi. – Yaratgan egam qariganimda xor qilmadi. Shu kelinimdan Xudo soldi. Bo‘sh vaqti bo‘ldi deguncha, holimdan xabar olib ketadi.

Qo‘shnisi G‘ani bobo hamsuhbatini kuzatib havasi keldi.

– Ha, Jo‘ra bobo, har kim ham qariganda qadr topsin ekan. Kelingiz tillo chiqdi. Baraka topsin. Qarang, o‘g‘lingiz Nizomjonni ham yo‘lga solib oldi. Mahalladagi eng buzg‘unchi, erkato‘y shu edi. Bu qanday ro‘zg‘or qilarkan, deb o‘ylardim.

– Shu qizni kelin qilganimda: “Kelib-kelib shu qizni kelin qilasizmi? O‘g‘lingizning biror aybi bormi, nima balo?” – deguvchilar bo‘ldi. Nima emish, o‘qiyman deb o‘tirib qolganmish. Bor-yo‘g‘i 24 yoshga kirgan qizni-ya? O‘g‘linga qiz so‘rab u yer, bu yerga bordik. Bezori, arzanda o‘g‘il deydishi. Qiz berishmadi. Hatto qarindoshlarimizam... Baxtini qarangki, sinfdoshim Rahmat muallim shu kelinimni tavsiya qildi:

– Yaxshi, o‘qimishli qiz, o‘g‘lingni yo‘lga soladi. Yoshi teng bo‘lsa nima qilibdi.

Peshonasi qo‘shilgan ekan, shu sabab bo‘ldi. Said traktorchi qiziga: “Yaxshi xotin qurbaqani er qilibdi, u-ku inson. Yaxshi odamlarning bolasi, arzanda bo‘lsa bo‘lar, kuyinma, baribir nasliga tortadi”, debdi. Mana, Ollohga shukr, kam bo‘lishmadi.

Jo‘ra bobo kichkina kelini Lobardan ko‘ngli to‘ldi. Unga iloji boricha, kuchi yetganicha, ayoli ikkovi ro‘zg‘or ishlariga yordamlashishar, o‘g‘li ming‘irlasa birgalikda kelinining tarafini olishardi. Kelini qaynotasini “Dadajon”, qaynonasini “Aya-jon”, deya joniga joylardi. Garchi turmush o‘rtog‘i ko‘maklashmasa-da, hech kimga sezdimadi. Borini oshirdi, yo‘g‘ini yashirdi. U qanchalik qo‘pol, qo‘rs bo‘lmasin muloyimlik bilan yengdi. Xalqimiz bekorga: shirin til bilan, ilon inidan chiqadi, demaganda. Ilon-ku indan chiqarkan, biz insonmiz, inson. Yaxshi so‘z gadosi.

Baraka topkur kelin puxta-pishiq chiqdi. Uyga gazeta, jurnal, kitob tashiy boshladi. Bu ishdan qaynata, qaynona, erining avvaliga g‘ashi keldi. O‘qigan kelin-da... O‘qiganlar esa gazeta-jurnalsiz, kitobsiz yashay olishmaydi.

Ko‘nikishdan boshqa iloj yo‘q. Deraza, xontaxta,

stol, televizor ustida qoldirilgan gazeta-jurnallarning rasmlari tomosha qilindi. Ayrim xabarlar o‘qildi, asta-sekin bu mutolaaga qanday berilib ketishganini o‘zlari anglolmay qolishdi.

Endi ko‘cha-ko‘yda o‘tirib g‘iybat qilishlar yo‘q. Chol-kampir o‘tirib gazetada chiqqan maqolalar, ibratli hikoyalar haqida o‘zaro fikr bildirishar, goho kimningdir yovuzliklaridan nafratlanishsa, birovning saxovatini olqishlashardi. Bu suhbatga bekorchi o‘g‘ilni ham tortishardi:

– Ko‘zimiz o‘tmayapti, o‘qib ber-chi, – deya qistashardi. Keyinchalik gazeta, jurnallarning yangi sonlarini intiqlik bilan kutadigan bo‘lishdi.

– Kelin, gazeta olib kelmadingizmi? Jurnal-

## FARISHTALI KELIN

Hikoya

ning yangi soni chiqmabdimi? – deya kutadigan bo‘lishdi. Nizomjon beparvolik bilan o‘qiy boshlagan bo‘lsa-da, mutolaa uni sehlardi. Gazeta, jurnalga qanoat qilmay, kitob o‘qishga tushib ketdi. Ehhee, kelin sep o‘rniga ikki sandiq kitob olib kelgan ekan. Kitob o‘qishni boshladi-yu, o‘zini, o‘zligini, oilaning muqaddas ekanligini, erkakning mas‘uliyatini anglay boshladi. Ajabo, shu paytgacha shunday yashaganiga o‘zidan o‘zi uyalib ketdi.

– Men endi o‘qiyman. Hunar o‘rganaman, – dedi bir kuni dabdurustdan Nizomjon. Uning qaroridan ota-onasi va xotini Lobarning boshi ko‘kka yetdi. “O‘qigan o‘qdan o‘zar” deganlaridek Nizomjon kech bo‘lsa-da, o‘qidi, hayotda o‘z o‘rniga, obro‘-e‘tiborga ega bo‘ldi.

“Bir paytlar uni yo‘lga solaman deb, qoqqanda qozig‘im, osganga cho‘michim qolmadi. Ammo kelin tushmagur, kitob o‘qishga o‘rgatdi-yu, hammasi boshqacha tus oldi”. Jo‘ra bobo hammasini xayolidan o‘tkazar ekan dedi:

– Menga shu qizni tavsiya qilgan Rahmat muallimdan minnatdorman. Har ko‘rganimda rahmat aytaman.

– Shuning uchun nabirangizga “Rahmat” ismini qo‘ygan ekansiz-da.

– Yo‘q. Bunga boshqa voqea sabab bo‘lgan. Yod-ingizda bo‘lsa, bir yili Azamat hisobchi to‘y qilgandi. Shu to‘yda o‘tirgan edik. Bir payt “Kelyapti, kelyapti...” degan gap tarqaldi. Hamma o‘rnidan turib ketdi. Kimlardir kutib olgani yugurib, mehmonning iqboliga chiqishdi. Men biror boshliqmi, hokimmi kelyapti

ekanda deb o‘yladim. Barcha qatori o‘rnimdan turib ketdim.

Bundoq qarasam, bilasizmi, G‘ani bobo, kim kelyapti, deng? Sinfdoshim – Rahmat muallim kirib kelsa bo‘ladimi...

Do‘stimga shunday havasim keldi, shunday havasim keldi. To‘yxonada niyat qildim: “Xudoyim o‘g‘il nabira bersa, ismini “Rahmat” qo‘yaman”. Niyatim xolis ekan. Gapning dangali kelinni, umr yo‘ldoshni to‘g‘ri tanlash kerak ekan-da, G‘ani bobo.

– To‘g‘ri aytasiz, qo‘shni. Hozir ko‘p oilalar mol-dunyo-siga, chiroyiga, otasining amaliga qarab yoki maktabni bitirar-bitirmas kelin tanlashadi. Keyin esa “tabiati mos kelmadi” bahona bo‘lib ajratishadi, mol-dunyo talashadi. Afsus, bundaylar ko‘payib bormoqda.

– Ey, qo‘shni, men shu kelinni tanlab, bir narsani tushundim. Kitob inson qalbini poklar ekan. Kitob o‘qigan insonning qalbi go‘zal bo‘larkan. Kelinim “dadajon” deganida yetmish ikki tomirim shovshab-shovshab ketadi.

Menga biram yoqadi, biram yoqadi. To‘rt bolam bir tomonda-yu, kelinimning o‘zi bir tomon. Bolalarini aytmaysizmi, bolalarini... “Bobojon, bobojon” deb mehribonlik qilishadi. Onasining bolasida... Har birining tilidan bol tomadi.

Qo‘llaridan kitob tushmaydi. Allaqanday tanlov va bellashuvlarda g‘olib bo‘lib kelishadi. Umri dalada o‘tgan Jo‘ra traktorchining nabiralari-ya?! Buni kim o‘ylabdi, deysiz? Yetti uxlab tushimga ham kirmagan baxt bu. Ular yonimda bo‘lsa, shunday rohatlanaman, shunday rohatlanaman...

– Jo‘ra bobo, o‘qigan kelinlarning barchasida sizning kelingizdagi fazilatlar bo‘lavermaydi-da.

– Gapingiz to‘g‘ri, kelinim o‘qiganini uqqanlardan. Chunki kitob o‘qigan, o‘qiydigan kishilarning farishtasi bo‘ladi. Xayoliga, og‘ziga kelgan har qanday gapni aytavermaydi. Mulohaza qiladi, yetti o‘lchab, bir kesadi. Oq-qoraning farqiga boradi. Asosiysi, gapning qayerga borishini bilishadi. Ular uchun inson, inson qalbi birinchi o‘rinda turadi. Inson va uning qadri aziz ekanligini his qilishadi.

– Har kimga siznikidek kelin ato etsin, ilohim.

– Ilohim, shunday bo‘lsin!

Jo‘ra bobo hassasini qo‘liga olib, ko‘chadan uyga kirayotib, tilida har kungi kalomini yana takrorladi:

– Ollohim, o‘zingga shukr, farishtali kelin ato qilganing uchun... Ota-onangga rahmat! Seni o‘qitgani, senga go‘zal fazilatlar yuqtirgani uchun!..

Risolat JUMANAZAROVA,  
Qamashi tumanidagi  
95-maktabning  
ona tili va adabiyot o‘qituvchisi



## OLIS XOTIRA



Olis qishloq, soddagina uy...  
Gulga to‘la oyna tokchasi.  
Taraladi mayingina kuy...  
Bu bahorning sokin kechasi.

Xontaxtada turar qalashib,  
Adabiyot, algebra, tillar...  
Vazifa ko‘p, navbat talashib,  
Ertangi kun darsidan so‘zlar...

Sokin tunning ortidan hali  
Tong otadi nurga cho‘milib.  
Gurs-gurs urar  
ko‘ksida yurak  
Shirin orzularga ko‘milib.

Sochin tarab, qarar oynaga,  
Sochlar sumbul,  
yuzlar bepardoz.  
Husnidan nur to‘lar xonaga,  
Sodda egni o‘quvchiga xos...

O‘taversin uning yonidan,  
Dunyoning zo‘r modelerlari,  
Bahra olib gul iforidan,  
Ketib borar qishloq qizlari.

Mana maktab... Nurli koshona,  
Nurli siymo –  
sinfdosh do‘stlar.  
Sinxona – aziz ostona  
Bugun esa...

Dugonajon, berahm yillar  
Olib ketdi bizdan yoshlikni.  
Xotiraga asta aylanar,  
Har bir kuni  
go‘zal yoshlikning.

Kelin olib, kuyovlar ko‘rdik,  
Har bir kunga aytib shukrona.  
Nevaralar isini tuydik,

Buvi bo‘ldik, baxtli qaynona.

O‘g‘il uylar payti so‘radik:  
Sevganingni olaylik, bolam.  
Qiz uzatar payti shivirlab,  
Dedik: senga ma‘qulmi,  
bolam?!

Sodda edik bizlar yoshlikda,  
Gapirmoqqa  
sig‘may haddimiz.  
Qolib ketdi burchak, xilvatda  
Javob kutgan sevgi xatimiz.

Nargiza SHERALIYEVA,  
Qo‘rg‘ontepa tumanidagi  
19-IDUMning  
ma‘naviy-ma‘rifiy  
ishlar bo‘yicha  
direktor  
o‘rinbosari



Faxr

## BU YO‘LLARDAN O‘TAR HALI QANCHA KARVONLAR...

*Ezgu tilak, ezgu maqsad hamrohingiz,  
Dunyolarni lol qoldirdi mehnatingiz.  
Hormang aslo, azizlarim, botirlarim –  
Faxrim mening, pok niyatli, yo‘lsozlarim!*

*Ulkan marra zabt etdingiz – qoyil sizga,  
Ta‘zim qilay, ey do‘stlarim, barchangizga.  
Omon bo‘ling, azizlarim, botirlarim,  
Duo qilar yosh-u qari haqqingizga!*

*Bu yo‘llardan o‘tar hali qancha karvon,  
O‘tar qancha yil-u qancha-qancha zamon.  
Olqishlaydi xalqim sizni zavq-la har on,  
Pok niyatli polvonlarim, yo‘lsozlarim!*

Orifjon UMIRZOQOV,  
Yangiqo‘rgon tumanidagi  
43-maktab o‘qituvchisi



**Gafurova Nodiraxon Oybek qizining 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Feto-fetal transfuzion sindromini tashxislash va korreksiyasini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.11.2023. Tib.114.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-yanvar kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100124, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,  
Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 132-“a” uy.  
Tel/faks: (71) 263-78-18; e-mail: info@uzaig.uz

**Sadirova Sarvinoz Sobirovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Reproduktiv yoshda tuxumdondlar polikistozi sindromining klinik-biokimyoviy va genetik o'zaro bog'liqliklari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.11.2023. Tib.114.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-yanvar kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100124, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,  
Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 132-“a” uy.  
Tel/faks: (71) 263-78-18; e-mail: info@uzaig.uz

**Qosimov Jo'rabek Sodiqovichning 05.10.02 – Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong'in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi ixtisosligi bo'yicha “Iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi sohasidagi hujjatlarning elektron raqamli tizimini yaratish usullarini takomillashtirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.19/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 3-fevral kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100102, Toshkent shahri, Yangiyo'q tumani, Do'stlik ko'chasi, 5-uy.  
Tel/faks: (71) 258-35-33, (75) 258-56-57; e-mail: info@akademiya.fv.uz

**Abdunabiyev Tolib Abdumalikovichning 05.10.02 – Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong'in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi ixtisosligi bo'yicha “Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni takomillashtirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.19/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-fevral kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100102, Toshkent shahri, Yangiyo'q tumani, Do'stlik ko'chasi, 5-uy.  
Tel/faks: (71) 258-56-57; e-mail: info@akademiya.fv.uz

**Joldasbayeva Raushan Ataniyaz qizining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Basketbolchilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida mashg'ulot yuklamalarining optimal nisbatlari” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022. Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-yanvar kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111709, Toshkent shahri, Yashnobod tumani,  
Yangi O'zbekiston ko'chasi, Olimpiya shaharchasi.  
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27; e-mail: info@jtsu.uz

**Qodirova Gavhar Alisher qizining 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha “Ta'lim motivatsiyasi ustuvorligida bo'lajak muhandislarga ingliz tilini o'rgatish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024. Ped.27.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,  
Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-“a” uy.  
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu\_info@mail.ru

**Toxirov Sardorbek Shokirjon o'g'lining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlaridagi yosh futbolchilarning asosiy akrobatik tayyorgarligi” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022. Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111709, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O'zbekiston ko'chasi,  
Olimpiya shaharchasi.  
Tel/faks: (70) 717-17-19, 717-27-27, 717-17-76;  
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: jtsu@uzdjsu.uz

**Sirliboyev Sirojiddin Alibobo o'g'lining 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha “Qisman adenitiyani chakka-pastki jag' bo'g'imidagi o'zgarishlarga asoslangan holda davolashni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-yanvar kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.  
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektor@sammu.uz

**Jumaniyazov Maxmud Omirzakovichning 05.10.02 – Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong'in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi ixtisosligi bo'yicha “Yong'in o'chirish yenglarining quritish qurilmasini takomillashtirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.19/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-yanvar kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100102, Toshkent shahri, Yangiyo'q tumani, Do'stlik ko'chasi, 5-uy.  
Tel/faks: (71) 258-35-33; e-mail: akademiya.fv@mail.ru

**Ziyadullayev Ilxom Oblakulovichning 10.00.04 – Yevropa, Amerika, Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha “Nemis tilida fe'l-neologizmlarning verbsentrik xususiyatlari” mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Fil.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-yanvar kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9 “A” mavzesi, 21-uy.  
Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjt@uzswlu.uz, uzgumyal@exat.uz

**Alixasanova Zulfiya Fizuliyevnaning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjima shunoslik ixtisosligi bo'yicha “Лингвопедagogические особенности флористической картины мира в сравнительно-сопоставительном аспекте” mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Fil.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9 “A” mavzesi, 21-uy.  
Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjt@uzswlu.uz, uzgumyal@exat.uz

**Tulyaganov Nozim Alisherovichning 14.00.04 – Otorinolarologiya ixtisosligi bo'yicha “Yanoq-orbital kompleksi sinishlarida yuqori jag' bo'shlig'i travmatik zararlanishini tashxislash va davolashni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-yanvar kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.  
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektor@sammu.uz

**Sadikova Xanifa Zakirovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya hamda 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosliklari bo'yicha “Preeklampsiya bilan kasallangan ayollarda “ona-homila” tizimini klinik-immunologik baholash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 3-fevral kuni soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.  
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

**Artikova Maqsad Maxmudovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha “Sitokinlar, oqsil o'sish va zararlantirish omillarining surunkali virusli hepatitlar asoratida prognostik ahamiyati” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019. Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 29-yanvar kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.  
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

## O'ZBEKISTON DAVLAT SPORT AKADEMIYASI QUYIDAGI BO'SH LAVOZIMLARNI EGALLASH UCHUN TANLOV E'LON QILADI:

### Dotsent lavozimiga:

- “Yakkakurash va suv sport turlari” kafed-rasi – 1 nafar;
- “Parasport va umumkasbiy fanlar” kafed-rasi – 1 nafar.

Tanlovga ariza va hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab 1 oy muddatda qabul qilinadi.

**Manzil: Toshkent shahri, Yangi O'zbekiston ko'chasi, Olimpiya shaharchasi.  
Telefon: (90) 186-95-24;  
telegram: (90) 186-95-24**



## Yangi nashr

QARSHIDA MUHAMMAD SHAYBONIYXON  
“DEVON”I NASHR ETILDI

XVI asrda ko'chirilib, besh asrdan ziyod vaqt mobaynida e'tibordan chetda qolib kelgan shohlar shoiri Muhammad Shayboniyxon “Devon”i birinchi bor filologiya fanlari doktori, QarDU professori Nafas Shodmonov tomonidan Qarshi shahridagi “Nasaf” nashriyotida nashr etildi.

Markaziy Osiyo hududida XV–XVI asrlarda hukm surgan shayboniylik davlati asoschisi Muhammad Shayboniyxon (1451–1510) nafaqat hukmdor, shuningdek olim, din peshvosi va soʻz sanʼatkori – shoir boʻlgani koʻpchilikka maʼlum, bu haqda Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostonida ham eʼtirof etilgan:

*Sheʼrni xoʻb tanir zavq bila,  
Oʻzi ham xoʻb aytur shavq bila.  
Turki abʼyoti erur sharbat nob,  
Forsiy sheʼrlari ham serob.  
Borcha serob-u salis-u dilkash,  
Tabʼ ahligʼ a jalis-u dilkash.*

Oʻzbek xoni Muhammad Shayboniyxonning hayoti va ijodiy faoliyati oʻz davrining qator tarixiy va adabiy manbalarida yoritilgan. Mulla Shodiyning “Fathnomai xoniy”, Muhammad Solih va Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”lari, Xondamirning “Habib us-siyar”, Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Zayniddin Mahmud Vosifiyning “Badoyeʼ ul-vaqoye”, Muhammad Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin”, Boburning “Boburnoma”, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullano-ma”, Alouddavla Husayn Qazviniyning “Nafais ul-mao-sir”, Som Mirzoning “Tuhfai Somiy”, Muhammadyor ibn Arab Muhammad Qatagʻanning “Musaxxir al-bilod”

nomli asari kabi qimmatli manbalarda hukmdor shoirning ijodiy qiyofasi aks etgan.

*Xon erur podshahi olami soʻz,  
Xon erur erta-kech hamdami soʻz.  
Xon soʻzi ishq jahonidindur,  
Xon soʻzi gʻayb lisonidindur.  
Xon oʻzi oshiq erur, orif ham,  
Borcha soʻz jonibidin voqif ham.  
Xon oʻzi soʻzni base xoʻb aytur,  
Nazm ila nasrni margʻub aytur.*

Oʻzbek xoni shoir sifatida Shohbaxt, Shibon, Shiboniy, Shayboniy taxalluslari bilan sheʼrlar yozgan, kamdan-kam ijodkorga nasib etadigan rutba – “Devon” egasi boʻlgan. Mazkur devonda sheʼrlar soni 417 ta. U oʻz ichiga gʻazal, ruboiy, tuyuq, chiston, taʼrix va boshqa janrdagi asarlarni olgan. Adabiyotshunos olim Nafas Shodmonov “Devon”ning “Nazmi margʻub shoir” sarlavhali soʻzboshisida yozishi-cha, “Shayboniyxon sheʼriyatida lirik qahramon xarakterini oʻrganish ham qiziqarli mavzu boʻla oladi. Uning qalbi Dashti Qipchoq, Turkiston, Turon kengliklari, dashtliklarida shakllangan. Biror-bir shahardagi siqiq hayotga moslashmagan. Qisqasi shuki, Shayboniyxon ijodi Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy sheʼriyatining sintezidan iborat. Bunga oʻxshash oʻnlab mavzular borki, ularni tadqiq qilish adabiyotshunosligimiz rivojiga xizmat qiladi”.

*Ey menga sajdagahiy ul qoshlaring mehrobidur,  
Bu koʻngil qushin tutargʼa shul koʻzing sayyodidur.*

*Novaking oʻqlari jonim koʻz yoshimdin suvsadi,  
Vah, bagʻir qonidin ichkan kirpuging paykonidur.*

*Gʻuncha laʼlin koʻrgali bu laʼl-u marjonlar toʻkub,  
Englari ollinda yo Rab, koʻzlarim namnokidur.*

*Otashin yoqut labindin yoqulib ishqing oʻti,  
May ichib kim, mast boʻlsa,  
shul koʻying chavgonidur.*

*Muhtasib manʼ etmagil  
maʼshuq kuyindin har zamon,  
Koʻz yoshi boda oʻtindin  
har zamon gʻamnokidur.*

*Ul parini Koʻksaroy ichinda har dam koʻrgali,  
Zulfi anbarboʻy-u mujgon vasfida devonidur.*

*Ey Shiboniy, shul sanam  
javrinda novmid oʻlimgʻil,  
Bas koʻngil orasta qilgʻil dilbaring sandolidur.*

Muxtasar aytganda, taniqli adabiyotshunos olim Nafas Shodmonov tomonidan Shayboniyxon “Devon”i nashr-ga tayyorlanib, sheʼriyat ixlosmandlariga tuhfa etilishini oʻzbek adabiyotidagi oʻziga xos voqea sifatida qarash mumkin. Binobarin, “Devon” bizning Shayboniyxon haqidagi tasavvurlarimizni kengaytiradi, samimiy va sod-da sheʼrlar koʻnglimizga farahbaxsh etadi.

Sherxon QORAYEV

# 2026-yil uchun obuna davom etmoqda!



## Marifat – *Заманавий* УЗБЕКИСТАНА

**gazetalari hamisha  
siz bilan birga**



**149**

Imtiyozli, arzonlashtirilgan  
narxda obuna uchun  
toʻliq bir yilga obuna  
boʻlishingiz kerak boʻladi.

**216**

**150**

1 yildan kam muddatga ham  
(3 oy, 6 oy) obuna  
boʻlishingiz mumkin.

**217**

**facebook.com/marifat.uz**  
**t.me/marifatziyo**  
**www.marifat.uz**  
**(71) 212-01-50**  
**(90) 167-67-05**  
**(99) 866-02-67**

# Marifat

TAʼSIS ETUVCHILAR:

Oʻzbekiston maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi,  
Oʻzbekiston oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi,  
Oʻzbekiston taʼlim va fan xodimlari  
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligida  
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan roʻyxatga olingan.  
Indeks: 149, 150. V-6036. Tiraji-3673.  
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.  
Qogʻoz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (71) 212-01-50



“Marifat”dan  
materiallarni koʻchirib bosish  
tahririyat ruxsati bilan amalga  
oshirilishi shart.  
Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar  
taqiriz qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.

Mobil ilovani  
yuklab olish uchun  
ushbu QR-kodni skanerlang:



– tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.  
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.  
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:  
100099 Toshkent shahri,  
Darvozakent koʻchasi, 60-uy.  
Veb-sayt: www.marifat.uz

“Oʻzbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida  
chop etildi.  
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher  
Navoiy koʻchasi, 30-uy.